

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“BUXGALTERIYA HISOBI VA AUDIT” FAKULTETI

«Bitiruv malakaviy ishi
himoyaga tavsiya etildi»

“Davlat moliyasi va soliqlar” kafedrasi
mudiri, i.f.n., dots. S.Xudoyqulov

«_____» _____ 2014 y.

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: “Jismoniy shaxslarning byudjet oldidagi majburiyatlari va ularni
maqbullashtirish”**

BAJARDI: “Buxgalteriya hisobi va audit”
fakulteti «Soliqlar va soliqqa tortish»
yo‘nalishining 4-kurs talabasi Sidiqov
Ziyodullo Ravshan o’g’li _____

ILMIY RAHBAR: i.f.n., dots. Qurbonov X.A.

TOSHKENT – 2014

MUNDARIJA:

KIRISH.....	3
I BOB. JISMONIY ShAXSLARDAN OLINADIGAN SOLIQLARNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	6
1.1. Soliq majburiyati tushunchasi va uning nazariy asoslari	6
1.2. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni byudjetga undirishning huquqiy asoslari.....	13
1-bob bo'yicha xulosalar.....	20
II BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN SOLIQLARNING BUDJETGA UNDIRISH AMALIYOTINING TAHLILI.....	21
2.1. Jismoniy shaxslarning daromad solig'i bo'yicha majburiyatlarini byudjetga undirilish amaliyotining taxlili.....	21
2.2. Jismoniy shaxslarning mol- mulk va yer solig'ini byudjetga undirish amaliyotining taxlili.....	33
2.3. Jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan boshqa soliqlarning byudjetga undirish amaliyotining taxlili.....	43
2-bob bo'yicha xulosalar.....	51
III BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN SOLIQLARNI BUDJETGA UNDIRISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	52
3.1. 2014 yilgi soliq siyosatida jismoniy shaxslar soliq majburiyatlarini optimalashtirish imkoniyatlari	52
3.2. Jismoniy shaxslar soliq majburiyatlarini yanada mukammallashtirish yo'llari	56
3- bob bo'yicha xulosalar.....	62
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	65
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	70

KIRISH

Bitiruv malakaviy ishi mavzusining dolzarbligi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida ham, islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida ham davlat soliqlar yordamida aholining turmush darajasini tartibga solib turadi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida iqtisodiy islohotlarga mos ravishda soliq tizimida bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilayaptiki, jismoniy shaxslar tomonidan to’lanadigan soliqlarni undirish borasidagi o’zgarishlar shular jumlasidandir. Jahan amaliyoti ko’rsatishicha, agar soliq yuki qanchalik yuqori bo’lsa daromadlarni yashirishga ko’proq ko’proq moyillik paydo bo’ladi, daromad olishga bo’lgan qiziqishlar bir muncha so’nadi, aksincha, soliq yuki kam bo’lsa aks holat yuz beradi. Mamlkatimiz soliq siyosatining asosiy yo’nalishlaridan biri bu bosqichma-bosqich soliq yukini kamaytirishdir. Bu xususida Prezidentimiz I.Karimovning quyidagi fikrlarini keltirish joiz: “2013-yilda iqtisodiyot sohasidagi soliq yuki 21,5 foizdan 20,5 foizga, jismoniy shaxslar uchun daromad solig‘ining eng kam stavkasi 9 foizdan 8 foizga tushirilganiga qaramasdan, davlat byudjeti yalpi ichki mahsulotga nisbatan 0,3 foiz profitsit bilan bajarildi”.¹

Bugungi kunda jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimining har tomonlama hisobga olgan holda sodda, tushunarli, mukammal ishlab chiqilishi ko’p jihatdan jismoniy shaxslarning byudjet oldidagi majburitlarining to’laqonli bajarilishi, soliq intizomini va madaniyatini yanada oshiriliida muhim ahamiyat kasb etadi. Shu o’rinda jismoniy shaxslarni daromadlaridan olinadigan soliqlar bilan bir qatorda jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig’i, yer solig’i, yoqilg’i iste’moli uchun soliq hamda tadbirkorlik faoliyati bilan shug’llanuvchi jismoniy shaxslardan qat’iy soliqlarni hisoblash va undirish mexanizmini takomillashtirish talab etiladi. Shu sababli ushbu mavzu bugungi kunning dolzARB mavzularidan hisoblanadi.

¹ Каримов И.А. 2014 йил ўюкори ўсиш суръатлари билан ривожланиш, барча мавжуд имкониятларни сафарбар этиш, ўзини оқлаган ислохотлар стратегиясини изчил давом эттириш йили бўлади» - «Халк сўзи» газетаси. 2014 йил 18 январь, № 13 (5687).

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni byudjetdagi o'mi va ahamiyatini hamda byudjetga undirish tartiblarini tahlil qilish asosida takomillashtirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqish bitiruv malkaviy ishining maqsadi hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining vazifalari. Ishning oldiga qo'yilgan maqsadiga erishish uchun quyidagi vazifalarni hal etish taqozo etiladi:

- jismoniy shaxslarning byudjet oldidagi majburiyatlarini ilmiy-nazariy asoslarni tadqiq etish;
- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyatlarini bajarishni tahlil qilish;
- jismoniy shaxslarning daromad solig'ini byudjetga undirish amaliyotini taxlil qilish;
- soliq majburiyatları bo'yicha qarzdorlik va uni to'lashni kechiktirish va (yoki) bo'lib-bo'lib to'lash tartibini tahlil qilish;
- jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan boshqa soliqlarning byudjetga undirish amaliyotini taxlil qilish;
- iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni byudjetga undirish tartiblarini takomillashtirish masalalarini ko'rib chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti. O'zbekiston Respublikasida jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar, ya'ni daromad solig'i, mol-mulk solig'i, yer solig'i, tadbirkorlik faoliyatidan qat'iy soliq hamda yoqilg'i iste'moli uchun undiriladigan soliqlar bitiruv malakaviy ishining obyekti hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining predmeti. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar, ya'ni daromad solig'i, mol-mulk solig'i, yer solig'i, tadbirkorlik faoliyatidan qat'iy soliq hamda yoqilg'i iste'moli uchun undiriladigan soliqlarlarning hisoblash va byudjetga undirish jarayonida shakllanadigan moliyaviy munosabatlar bitiruv malkaviy ishining predmeti hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiliklari. Ushbu bitiruv malkaviy ishini yozshi jarayonida jismoniy shaxslarni soliqlar vositasidagi byudjet oldidagi majburiyatlariing ilmiy nazariy asoslari kompleks talil qlindi va uni takomillashtirish bo'yicha taklif va amaliy tavsilar ishlab chiqildi. Bitiru ishining ilmiy yangiliklari quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- Soliq kodeksining 179-moddasi 31 bandida keltirilgan imtiyoz, ya'ni fuqarolarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlarining O'zbekiston Respublikasi oliv o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun yo'naltiriladigan summalarini soliqqa tortish tizimini takomillashtirish bo'yich takliflar ishlab chiqildi;
- avtotransport vositalarini ijara berishda olingan daromadlarni soliqqa tortish bo'yicha belgilangan stavkalarni takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.
- qo'shimcha daromad manbai bo'lgan mulkiy daromadlarni soliqqa tortish tizimini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan
- Mehnat sharoiti o'ta zararli va o'ta og'ir ishlarda band bo'lgan ayollarning daromadlarini soliqqa tortishni takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlabchiqilgan.

Bitiruv malakaviy ishining nazariy- amaliy ahamiyati. Mazkur ishning oldiga qo'yilgan vazifalarni amalag oshirish natijasida maqsadga erishish amalgalashirilayotgan byudjet va soliq siyosatining tub mohiyatini soliq va to'lovlarini to'lovchilarga tushuntirishda hamda jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni byudjetga undirishni soddallashtirishda qo'llanilishi yoki foydalanilishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishida jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni byudjetga undirish tartibini takomillashtirish bo'yicha natijalarga erishish amaliy ahamiyatga egadir.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi. Tayyorlangan bitiruv malakaviy ishi kirish, uch bob, beshta paragraf, har bir bob bo'yicha xulosa va ishning yakunida umumiy xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB. JISMONIY ShAXSLARDAN OLINADIGAN SOLIQLARNING NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI

1.1. Soliq majburiyati tushunchasi va uning nazariy asoslari

Majburiyat - bu fuqarolik xuquqiy munosabat bo'lib, ma'lum bir shaxs (qarzdor) boshqa bir shaxs (kreditor) manfaati hisobiga ma'lum bir harakatlarni amalga oshirishi, ya'ni: mol-mulkni berish, ish bajarish, xizmat ko'rsatish, pul to'lovlarini amalga oshirish yoki ma'lum harakatlardan voz kechish va boshqalardir.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksiga binoan, "Majburiyat - fuqarolik huquqiy munosabati bo'lib, unga asosan bir shaxs (qarzdor) boshqa shaxs (kreditor) foydasiga muayyan harakatni amalga oshirishga, chunonchi: mol-mulkni topshirish, ishni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, pul to'lash va hokazo eki muayyan harakatdan o'zini saqlashga majbur bo'ladi, kreditor esa - qarzdordan o'zining majburiyatlarini bajarishni talab qilish huquqiga ega bo'ladi"².

Boshqacha qilib aytganda majburiyat – bu odatda yozma ravishda rasmiylashtirilgan so'zsiz bajarilishi talab qilinuvchi va'da demakdir.

Majburiyatning taraflari - kreditor eki qarzdor sifatida bir eki bir paytning o'zida bir necha shaxs ishtirok etishi mumkin.

Majburiyatda qarzdor tomonida ishtirok etgan shaxslardan biriga kreditor bildirgan talablarning haqiqiy emasligi, shuningdek bunday shaxsga talab qo'yishga doir da'vo muddati o'tib ketganligi kreditorning qolgan shaxslarga bo'lgan talablariga o'zicha dahl etmaydi.

Agar taraflar shartnomaga binoan bir-birlariga nisbatan majburiyatli bo'lsa, taraflardan har biri boshqa taraf oldida uning foydasiga nima qilishi shart ekanligi jihatidan uning qarzdori va ayni bir paytning o'zida undan nima talab qilishga huquqli ekanligi jihatidan uning kreditori hisoblanadi.

² Ўзбекистон Республикасининг Фуқаролик Кодекси. ЎзР Олий Мажлисининг 29.08.96 й. 257-И-сон Қарорига мувофиқ 1 март 1997 й. эътиборан амалга киритилган. 234-модда.

Majburiyat unda taraflar sifatida qatnashmagan shaxslar (uchinchi shaxslar) uchun burchlar hosil qilmaydi.

Qonun hujjatlarida eki taraflarning kelishuvida nazarda tutilgan hollarda majburiyat uchinchi shaxslar uchun majburiyatning bir tarafi eki har ikkala tarafiga nisbatan huquq vujudga keltirishi mumkin.

Majburiyatlar majburiyat shartlariga va qonun hujjatlari talablariga muvofiq, bunday shartlar va talablar bo'lmaganida esa - ish muomalasi odatlariga eki odatda qo'yiladigan boshqa talablarga muvofiq lozim darajada bajarilishi kerak.

Soliq to'lovchining soliq to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq yuzaga keladigan majburiyati soliq majburiyati deb e'tirof etiladi.

Soliq majburiyatini bajarish uchun soliq to'lovchi:

- Soliq kodeksida belgilangan hollarda davlat soliq xizmati organlarida hisobga turishi;

- soliq solish ob'ektlari va soliq solish bilan bog'liq ob'ektlarni aniqlashi hamda ularning hisobini yuritishi;

- moliyaviy va soliq hisobotini tuzishi hamda uni davlat soliq xizmati organlariga taqdim etishi;

- soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni o'z vaqtida hamda to'liq miqdorda to'lashi shart.

Soliq majburiyatini bajarish bevosita soliq to'lovchi tomonidan amalga oshiriladi.

Yuridik shaxsning alohida bo'linmalari bo'yicha soliq majburiyati mazkur alohida bo'linmalar tomonidan, agar ularga alohida mol-mulk ajratilgan bo'lsa va ular mustaqil balansga ega bo'lsa, mustaqil ravishda bajariladi.

Soliq solinadigan mol-mulk ishonchli boshqaruvgaga topshirilganda boshqaruv muassisi bo'lган soliq to'lovchining soliq majburiyati, agar bu majburiyat unga boshqaruv muassisi tomonidan yuklatilgan bo'lsa, ishonchli boshqaruvchi tomonidan bajarilishi mumkin.

Soliq majburiyati bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda, soliq to'lovchiga nisbatan Soliq kodeksida nazarda tutilgan tartibda uning bajarilishini ta'minlash choralari qo'llaniladi.

Soliq majburiyati Soliq kodeksida belgilangan muddatlarda soliq to'lovchi tomonidan bajarilishi kerak.

Soliq to'lovchi soliq majburiyatini muddatidan ilgari bajarishga haqli.

Soliq majburiyatini bajarish muddatlari kalendar sana yoki vaqt davri (yil, yil choragi, oy, o'n kunlik va kun) o'tishi bilan belgilanadi.

Muddatning o'tishi kalendar sanadan yoki muddatning boshlanishi belgilab qo'yilgan voqea yuz bergenidan keyingi kundan boshlanadi. Soliq majburiyati bu majburiyatni bajarish muddatining so'nggi kuni soat yigirma to'rtga qadar bajarilishi kerak.³

Agar soliq majburiyatini bajarish muddatining so'nggi kuni dam olish (ishlanmaydigan) kuniga to'g'ri kelib qolsa, shundan keyingi birinchi ish kuni muddatning tugash kuni hisoblanadi.

Jismoniy shaxsning soliq majburiyati quyidagi hollarda tugatiladi:

- uning vafot etishi bilan;
- uni vafot etgan deb e'lon qilish to'g'risidagi sud qarori qonuniy kuchga kirishi bilan.

Yuridik shaxsning soliq majburiyati quyidagi hollarda tugatiladi:

- u tugatilganidan keyin;
- u qo'shib olish (qo'shib olingan yuridik shaxsga nisbatan), qo'shib yuborish, bo'lish va o'zgartirish orqali qayta tashkil etilganidan keyin.

Davlat soliq xizmati organi soliq davri tugaganidan keyin besh yil ichida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini hisoblashi yoki ularning hisoblangan summasini qayta ko'rib chiqishi mumkin.

Soliq to'lovchi soliq davri tugaganidan keyin besh yil ichida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarining ortiqcha to'langan summalarini hisobga olishni yoki qaytarishni talab qilishga haqli.

³ Узбекистон Республикаси Солик кодекси. Тошкент, Адолат, 2008 йил, 79 бет.

Soliq majburiyati bo'yicha da'vo qilish muddatining o'tishi fuqarolik qonun hujjatlariga muvofiq to'xtatib turiladi, uziladi va tiklanadi.

Soliq to'g'risidagi qonun hujjatlari soliq solishning majburiyligi, aniqligi, adolatliligi, soliq tizimining yagonaligi, soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarining oshkoraliyi va soliq to'lovchining haqligi prezumptsiyasi printsiplariga asoslanadi.

Soliq to'lovchilar zimmasiga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni to'lash majburiyati yuklatilgan jismoniy shaxslar, yuridik shaxslar va ularning alohida bo'linmalaridir.

Jismoniy shaxslar yuridik shaxs maqomini olmagan shaxslardir. Bunday shaxslarga O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, fuqaroligi bo'limganlar va chet el mamlakatlari fuqarolari kiradi. O'zbekiston Respublikasi soliq qonunchiligiga binoan soliqqa tortish maqsadida soliq to'lovchilar yuridik va jismoniy shaxslarga bo'lingan. Jismoniy shaxslar to'laydigan soliqlar davlat byudjeti daromadlarining 20-25 foizini tashkil etadi.


O'zbekiston Respublikasining davlat byudjetiga undiriladigan quyidagi soliqlar jismoniy shaxslardan olinadi (2-rasm).

Aholining daromadlaridan undiriladigan daromad solig'i to'g'risida ko'plab olim va iqtisodchilar o'zlarining ilmiy qarashlarida fikrlarini bayon etganlar. O.Abduraxmanov jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar mohiyatini ochishda unga quyidagicha ta'rif bergan: Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bu fuqarolarning har qanday qonuniy faoliyati manbalari asosida oladigan shaxsiy daromadlaridan davlat foydasiga o'tkazadigan ekvivalent siz majburiy to'lovlaridir.⁴

A.Adizov jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarga umumlashtirilgan holda quyidagicha, "Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar-davlat va jamiyat tomonidan majburiyat sifatida ko'rsatiladigan xizmatlar haqi bo'lib, ularni mablag' bilan ta'minlash maqsadida qonun tomonidan belgilab qo'yilgan hajm

⁴ Abduraxmonov O. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar tizimi va uni takomillashtirish masalalari./ Iqtisod fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - Toshkent, 2005.

va o'rnatilgan muddatlarda davlat ixtiyoriga majburiy ravishda undiriladigan to'lovdir" deb ta'rif bergan⁵.



1.1-rasm. Jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan soliqlar⁶

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i fuqarolarning shaxsiy daromadlaridan to'lanadigan va davlat byudjetiga tushadigan majburiy to'lov bo'lib, u ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish uchun sarflanadi va muayyan iqtisodiy munosabatlarni aks ettiradi. Davlat shu yo'l bilan milliy daromad taqsimotini amalga oshiradi. Daromad solig'i jismoniy shaxslar faoliyatining turli sohalaridan olinadigan shaxsiy daromadning bir qismini qayta taqsimlash vositalaridan biri bo'lib maydonga chiqadi. Binobarin, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i (barcha soliqlar kabi) ikki tomonlama xususiyatga ega bo'ladi, ya'ni ishlab chiqarish munosabatlarining o'ziga xos shakli (ularning ijtimoiy mazmuni) sifatida maydonga chiqadi va pul shaklidagi milliy daromadning bir qismi (moddiy mazmuni) hisoblanadi. Jismoniy shaxslardan

⁵Adizov A. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar tizimini takomillashtirish./ Iqtisod fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. - Toshkent, 2004. B. - 25.

⁶O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksi asosida tayyorlandi

olinadigan daromad solig'ining manbai aholining iste'mol fondidir yoki taqsimlash jarayonlarini hisobga olganda esa milliy daromadning bir qismidir.

Soliq kodeksiga ko'ra soliq solinadigan mol-mulkga ega bo'lgan jismoniy shaxslar, chet el fuqarolari, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni to'lovchilari bo'lib hisoblanishadi.

Jismoniy shaxslarning O'zbekiston Respublikasi hududida joylashgan uyjoylari, kvartiralari, chorborg' va bog' uylari, garajlar va boshqa imoratlari, binolar va inshootlari qiymati soliq solish ob'ekti hisoblanadi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkini inventarizatsiya qilish qiymati soliq solish baza bo'lib hisoblanadi. Agar jismoniy shaxslarning mol-mulkini bahosi tegishli vakolatli idoralar tomonidan aniqlanmagan bo'lsa, bunday holatda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan mol-mulkning shartli qiymati belgilanadi hamda o'rnatilgan stavkalar asosida soliqqa tortiladi.

Soliq kodeksiga ko'ra o'z mulkida, egaligida, foydalanishida yoki ijara huquqi asosida er uchastkalariga ega bo'lgan jismoniy shaxslar, shuningdek yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari er solig'ining to'lovchilari bo'lib hisoblanishadi.

Yer uchastkalarini ijagara olgan jismoniy shaxslarga yer solig'ini to'lovchilar uchun belgilangan imtiyozlar, soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisobkitoblarni taqdim etish va soliqni to'lash tartibi tatbiq etiladi.

Jismoniy shaxslarning quyidagi yer uchastkalari soliq solinadigan ob'ekt hisoblanadi:

- dehqon xo'jaligini yuritish uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;
- yakka tartibda uy-joy qurilishi uchun meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilishga berilgan yer uchastkalari;
- jamoa bog'dorchiligi, uzumchiligi va polizchiliginи yuritish uchun berilgan yer uchastkalari;

- xizmat yuzasidan qonun hujjatlariga muvofiq berilgan chek yerlar;
- meros bo'yicha, hadya qilinishi yoki sotib olinishi natijasida uy-joy, dala hovli bilan birgalikda egalik qilish huquqi ham o'tgan yer uchastkalari;
- qonun hujjatlarida belgilangan tartibda mulk qilib olingan yer uchastkalari;
- tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun doimiy foydalanishga yoki ijara ga berilgan yer uchastkalari.

Soliq kodeksiga ko'ra ko'chmas mulkka ega bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazishni amalga oshiruvchi organning yer uchastkalarining maydoniga doir ma'lumotnomalari soliq solinadigan baza bo'lib hisoblanadi.

Yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar qat'iy belgilangan soliq to'lovchilar hisoblanadilar.

Tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi qat'iy belgilangan soliqni to'lovchi jismoniy shaxslar soliq qonunchiligiga ko'ra ijtimoiy sug'urta badallarini, eksport-import operatsiyalarini bajarganda yagona bojaxona to'lovi, savdo qilish huquqi uchun yig'imni, agarda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda suv resurslaridan foydalanilsa, unda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni, bozorlarda faoliyatini amalga oshirishda savdo joyi uchun to'lov (patta)ni, davlat bojlarini to'laydilar.

Yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar uchun qat'iy belgilangan soliq stavkalarining aniq miqdorlarini Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimiyatlari tadbirkorlik faoliyatining turi va faoliyat joyiga (viloyatlardagi shaharlar, tumanlar, shu jumladan qishloq joylarga) bog'liq ravishda belgilaydi.

Bunda faoliyatning turli xillari uchun tabaqalashtirilgan yondashuvni ta'minlash maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimiyatlari tomonidan mahalliy sharoitlar va boshqa mezonlarni hisobga olgan holda qat'iy belgilangan miqdorlarda daromad solig'i stavkalari belgilanishi mumkin.

Qat’iy belgilangan soliqning bazaviy stavkalari va yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug’ullanuvchi jismoniy shaxslar daromadidan olinadigan qat’iy belgilangan soliq summasining hisob-kitobi uchun tuzatuvchi koeffitsientlar O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tasdiqlanadi.

Jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg’isi va gaz iste’moliga olinadigan soliq to’lovchilari bo’lib, jismoniy shaxslarga transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg’isi va gazni chakana sotadigan, mulkchilik shaklidan qat’i-nazar xo’jalik yurituvchi sub’ektlar hisoblanadi. Bunda ularning joylashgan joyidan qat’i-nazar avtomobilga yonilg’i quyish shoxobchalariga ega bo’lgan xo’jalik yurituvchi sub’ektlar soliq to’lovchi bo’lib hisoblanadi.

Jismoniy shaxslarga transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg’isi va gazni chakana sotish soliq solish ob’ekti hisoblanadi.

Jismoniy shaxslarga sotilgan o’zi ishlab chiqargan hamda chetdan xarid qilingan benzin, dizel yonilg’isi va gazning natural hajmi soliq solish baza hisoblanadi.

Benzin, dizel yonilg’isi va gazni sotish deganda ularni jismoniy shaxslarga amalda berish tushuniladi.

Yuqorida sanab o’tilgan soliqlarning barchasi jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar bo’lib, ularni byudjetga undirishda alohida hisob-kitob jarayonlari amalga oshiriladi. Solqilarning stavkalari har yili Prezident Qarorida aks etadi.

1.2. Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni byudjetga undirishning huquqiy asoslari

Iqtisodiy adabiyotlarda yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar va boshqa majburiy to’lovlarining yig’indisi *soliqlar tizimi* deb tushuniladi. Soliq kodeksining 23-moddasiga ko’ra O’zbekiston Respublikasi xududida soliqlar va

boshqa majburiy to'lovlar amal qiladi hamda ular O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisini tomonidan joriy etiladi va bekor qilinadi.

O'zbekiston Respublikasida soliq tizimining huquqiy asoslari, soliq to'lovchilarning huquqlari hamda majburiyatlari, soliq ishlarini yuritish tartiboti va soliq haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik Soliq Kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Davlat soliq xizmati to'g'risida" gi qonuni va shu kabi bevosita soliqqa oid qonun hujjatlari orqali tartibga solib turiladi.

Soliq haqidagi qonun hujjatlarining boshqa qonunlar va qonun hujjatlaridan o'rinni olgan normalari soliq kodeksiga muvofiq bo'lishi lozim. Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida Soliq Kodeksidan boshqacha qoidalar belgilangan yoki nazarda tutilgan bo'lsa, unda xalqaro shartnomada qoidalarida belgilangan shartlar amalda qo'llaniladi.

Soliq solish – yuridik shaxslarga nisbatan mulkchilik shaklidan qat'i nazar, qonun oldida tenglik, jismoniy shaxslarga nisbatan esa jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsiy va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, qonun oldida tenglik asosida amalga oshiriladi.

Belgilanayotgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar tovarlarning (ishlar, xizmatlarning) yoki pul mablag'larining O'zbekiston Respublikasi hududi doirasida erkin muomalada bo'lishini bevosita yoki bilvosita cheklab qo'yishi yoxud soliq to'lovchining iqtisodiy faoliyatini boshqacha tarzda cheklab qo'yishi yoki unga g'ov bo'lishi mumkin emas. Olingan manbalaridan qat'i nazar, barcha daromadlarga soliq solinishi lozim, soliq imtiyozlarini belgilashda esa albatta ijtimoiy adolat printsiplariga rioya etilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi hududida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar O'zbekiston Respublikasining pul birligi-so'mda hisoblab chiqariladi.

Amaldagi soliq kodeksiga ko'ra soliq to'lovchilar ko'yidagi huquqlarga egadirlar:

- soliq organlaridan soliq haqidagi qonun hujjatlari masalalari bo'yicha axborot va maslahatlar olish.

Soliq to'lovchi yuridik va jismoniy shaxslar o'zлari ro'yxatdan o'tgan quyi Davlat soliq xizmati organlariga borib, byudjet oldidagi o'z majburiyatlarini xatolarsiz bajarish maqsadida tegishli axborotlarni yoki maslaxatlarni bepul olish imkoniyatlariga ega.

- Soliq kodeksida va boshqa qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartibda va asoslarda soliq imtiyozlaridan foydalanish.

- Byudjetga ortiqcha miqdorda tushgan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar summasini qaytarish to'g'risida yozma ariza bilan murojaat qilish.

Amaliyotda shunday holatlar uchraydiki, gohida soliq to'lovchilarning o'zлari, gohida esa soliq idoralarining ongli xarakatlari tufayli soliqlar va yig'implardan ortiqcha to'lovlarni undirish amalga oshiriladi, ayniqsa, chorak yakuni yoki moliyaviy yil yakunlanayotgan vaqtida ayrim soliq turlaridan prognoz-rejalarni bajarish maqsadida korxonalarning bankdagi xisob raqamlaridan inkassa topshiriqnomasi orqali qonunchilikka zid ravishda majburiy undirish holatlari ko'p uchrashi mumkin. Byudjetga ortiqcha undirilgan soliqlar 30 kun muddat ichida soliq to'lovchilarga qaytarilishi yoki boshqa soliqlar va yig'implardan qarzi mavjud bo'lган holda o'sha qarzni qoplash imkoniyati paydo bo'ladi.

- Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha byudjet oldidagi o'z soliq majburiyatlarini bajarish yuzasidan soliq organlaridagi mavjud ma'lumotlar bilan tanishish.

Ushbu bandga muvofiq soliq to'lovchilar quyi soliq idoralariga berilgan soliq turlari bo'yicha belgilangan prognoz-reja va shu kabi xo'jalik va moliyaviy faoliyatlariga tegishli bo'lган soliqqa tortish masalalari bo'yicha ma'lumotlar bilan tanishish imkoniyatlariga egadirlar.

- Soliq organlari o'tkazgan tekshiruv materiallari bilan tanishish va tekshiruv dalolatnomalarini olish, tekshiruvlarning natijalaridan norozi bo'lган taqdirda soliq organiga o'zining yozma e'tirozlarini o'n kunlik muddat ichida taqdim etish.

Soliq to'lovchilar faoliyati soliq organlari tomonidan tekshirilganda aniqlangan xato va kamchiliklar, qo'shimcha hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlari, hisoblangan moliyaviy jarimalar to'g'risida tuzilgan dalolatnama korxona mansabdar shaxslariga (bosh hisobchisiga) tanishtirilishi shart. Tekshirish natijalarini korxona rahbariyati noxaq deb hisoblashi hamda e'tiroz bildirishi ham mumkin. Bunday holatda, soliq to'lovchi soliq idorasi rahbariyati nomiga yoxud yuqori soliq idoralariga yozma murojaat qilishlari mumkin. Soliq idoralarida ekspert komissiyasi tuzilgan bo'lib, ushbu komissiya tomonidan soliq to'lovchilarning yozma e'tirozlarini bir oy muddat ichida ko'rib chiqiladi va natijasi arizachiga bildiriladi. Bunday holatda tekshirish natijasida soliq to'lovchiga nisbatan qo'shimcha hisoblangan soliqlar va boshqa majburiy to'lovlari hamda moliyaviy jarimalarni byudjetga undirish to'xtatilmaydi.

- Soliq organlarining qarorlari va ular mansabdar shaxslarining hattiharakatlari ustidan yuqori soliq organlariga yoki sudga shikoyat qilish.

Soliq organlari o'zlariga berilgan vakolot doiralarida qabul qilgan qarorlari ayrim hollarda soliq to'lovchilarning e'tirozlarini keltirib chiqarishi mumkin yoki ular mansabdar shaxslarining xatti-xarakatlarini soliq to'lovchi qonunga zid deb hisoblashlari va ularga barham berish maqsadida yuqori soliq organlari(Davlat soliq boshqarmasi, Davlat soliq qo'mitasi)ga yoxud sudga shikoyat bilan da'vo qilishlari mumkin. Bunday holat amaliyotda ba'zida uchrab turadi.

- Soliq solish ob'ektini hisobga olishda, soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish va to'lashda o'zlari yo'l qo'ygan xatolarni mustaqil ravishda tuzatish.

Soliq to'lovchilar soliq hisob-kitobini quyi soliq idoralariga qonunchilikda belgilangan muddatlarda topshirgandan so'ng, xato va kamchiliklarni aniqlashsa uni qayta tuzatib darhol soliq idoralariga qayta soliq hisob-kitoblarini

topshirishlari lozim bo'ladi. Aks holda, qonun oldida javob berishga to'g'ri keladi.

Soliq to'lovchilar Soliq Kodeksida va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa huquqlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

Soliq kodeksiga ko'ra soliq to'lovchilar quyidagi majburiyatlarga egadirlar:

- belgilangan tartibda va muddatlarda soliq organlarida ro'yxatdan o'tish, pochta manzili o'zgargan taqdirda esa (notijorat tashkilotlar qayta ro'yxatdan o'tkazilgan taqdirda ham), bu haqda soliq organlarini o'n kunlik muddat ichida yozma ravishda xabardor etish.

Soliq to'lovchilar amaldagi qonunchilikka muvofiq davlat ro'yxatidan o'tgandan so'ng, albatta quyi soliq idoralaridan ham ro'yxatdan o'tishi va tegishli ravishda soliq to'lovchining identifikatsion raqami (STIR) ni olishi shart. STIR Davlat soliq qo'mitasi tomonidan markazlashgan tartibda ro'yxatga olinadi va soliq to'lovchilarga quyi soliq idoralari tomonidan etkaziladi.

- Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarining tegishli summasini o'z vaqtida va to'liq hajmda to'lash.

Soliq to'lovchilar hisobot davrida hisoblangan soliqlar va yig'imlarni o'z vaqtida, to'liq miqdorda byudjetga to'lab berishlari shart. Aksincha, soliq idoralari tomonidan o'z vaqtida byudjetga o'tkazilmagan soliqlar va yig'imlar summasiga nisbatan har bir kechiktirilgan kun uchun 0,05 foiz miqdorida jarima (penya) hisoblanadi. Hisoblangan penya miqdori korxonaning sof foydasi hisobidan qoplanadi.

- Buxgalteriya hisobini va hisob hujjatlarini qonun hujjatlariga muvofiq yuritish.

Korxona o'zining ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatini yuritishda qonunchilik bilan belgilab berilgan hisob va buxgalteriya hisobi xujjalarni yuritishga majburdir. Korxonada buxgalteriya hisobini yuritish tegishli qonunchilik normalari asosida amalga oshiriladi.

- Moliyaviy hisobotni, soliqlar bo'yicha hisob-kitoblarni yoki daromadlar to'g'risidagi deklaratsiyalarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda soliq organlariga taqdim etish.

Soliq to'lovchilar har bir soliq turi bo'yicha hisob-kitoblarini belgilangan muddatlardan kechiktirmasdan soliq idoralariga taqdim etadi. Aks holda, korxonaga va korxonaning mansabdar shaxslariga nisbatan moliyaviy va ma'muriy jazo choralari qo'llaniladi.

- Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini hisoblab chiqarish, to'lash bilan bog'liq hujjatlar va ma'lumotlarni, shuningdek soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar yuzasidan imtiyozlar huquqini tasdiqlovchi hujjatlarni soliq organlariga taqdim etish.

Soliq to'lovchilarga soliq kodeksida, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlarida yoki boshqa qonun xujjatlarida soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan imtiyozlar ko'zda tutilgan holda, ular imtiyoz olish huquqini tasdiqlovchi tegishli qonun xujjatlarini quyi soliq idoralariga taqdim etishi shart. Imtiyoz huquqini tasdiqlovchi xujjat mavjud bo'lgandagina ular imtiyozlardan foydalanishlari mumkin.

- Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarini hisoblab chiqarish, to'lash masalalarini tekshirish uchun soliq organlarining mansabdar shaxslarini daromad olish yoki soliq solish ob'ektlarining saqlanishi bilan bog'liq binolar va joylarga kirishiga ruxsat berish.

Nazorat organlari faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika kengashining tekshiruv rejasiga asosan Davlat soliq xizmati organlari tomonidan soliq to'lovchilar faoliyati tekshirilganda korxonalar soliqqa tortish ob'ekti bilan bog'liq bo'lgan barcha ob'ektlarini ko'zdan kechirishga va bundan tashqari tekshirishga sharoit yaratib berishlari lozim. Aks holda, soliq idoralarining qonuniy talablari bajarilmagan hisoblanadi va ularga nisbatan qonunchilikda ko'zda tutilgan tegishli jazo choralari qo'llaniladi.

- Soliq organlarining soliq haqidagi qonun hujjatlarini buzish hollarini bartaraf etish to'g'risidagi talablarini bajarish.

Soliq idoralari tomonidan o'tkazilgan tekshirishlar natijasida aniqlangan xato va kamchiliklarni bartaraf etish yoki ularning boshqa vakolot doirasidagi qonuniy talablari soliq to'lovchilar tomonidan bajarilishi majburdir.

Soliq to'lovchilar Soliq Kodeksida va boshqa qonun hujjatlarida o'z zimmalariga yuklatilgan boshqa huquq va majburiyatlarga ham ega bo'lishlari mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining 2002 yil 14 yanvardagi 10, 2002-16-son qarori bilan tasdiqlangan yangi tahrirdagi "Jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish va byudjetga to'lash tartibi to'g'risida Yo'riqnomada"⁷ soliq solish ob'ekti, jami yillik daromad va undan chegirmalar, jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish tartibi, deklaratsiya taqdim etish tartibi va ular asosida jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqni to'lash hamda soliq to'lash muddatlari keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining 2002 yil 16 yanvardagi 16, 2002-19-son qarori bilan tasdiqlangan yangi tahrirdagi "Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish va byudjetga to'lash tartibi to'g'risida Yo'riqnomada"da hamda 2002 yil 21 yanvardagi¹⁹ va 2002-20-son qarori bilan tasdiqlangan "Yer solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risida Yo'riqnomda"⁸ soliq to'lovchilar, soliq solish ob'ektlari, soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi, soliq solinadigan jismoniy shaxslarni hisobga olish tartibi va to'lovchilarning mas'uliyati keltirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasining 2003 yil 3 aprelda 2003-33-son qarori bilan tasdiqlangan yangi tahrirdagi "Yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan jismoniy shaxslarning daromadidan qat'iy belgilangan

⁷ O'zR AV 02.03.2006 y. 1110-5-son bilan ro'yxatga olingan O'zR MV va DSQ Qarori bilan o'zgartirishlar kiritilgan

⁸ O'zR AV 10.04.2006 y. 1118-3-son bilan ro'yxatga olingan O'zR MV va DSQ Qarori bilan o'zgartirishlar kiritilgan

hajmlarda olinadigan soliqni hisoblab chiqarish va to'lash tartibi to'g'risida Nizom'da⁹

Soliq to'lovchilar, soliq to'lash tartibi va muddatlari, turg'un savdo shoxobchalari orqali chakana savdo sohasida qat'iy belgilangan soliqni hisoblash va to'lash tartibi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tomonidan hisobotlarni topshirish tartibi va soliq to'lovchilarning mas'uliyati keltirilgan.

1-bob bo'yicha xulosalar

Soliq tizimini yanada rivojlantirishdan asosiy maqsad, davlatning iqtisodiy siyosatini, aholini ijtimoiy himoyalashni, tadbirkorlikni rivojlantirishni, davlatning mudofaa qudratini oshirishni, ijtimoiy-madaniy tadbirlarni amalga oshirishni, mustaqil davlat sifatida xalqaro faoliyatni amalga oshirish uchun va davlat ahamiyatiga molik boshqa vazifalarni bajarishni ko'zda tutuvchi moliyaviy manbalarni etarli darajada to'plashni nazarda tutadi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlar aholining pul daromadlari darajasiga ta'sir qiladi, shu bilan birga davlat soliqni olinadigan daromadlardan yanada maqsadga muvofiq foydalanish uchun rag'batlantiruvchi omil sifatida ishga soladi. Daromad solig'ini undirish tufayli daromadlarning, avvalo yuqori daromadlarning bir qismi aholining qo'shimcha mablag'larga muhtoj bo'lgan toifalari foydasiga umuman jamiyat manfaatlari yo'lida yuqorida takidlanganidek, qayta taqsimlash sodir bo'ladi. Daromadlardagi tengsizlik darajasi ma'lum darajada qisqaradi.

Davlat bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida soliqqa tortishning makroiqtisodiy vositasi orqali aholining daromadlarini qayta taqsimlashda tartibga soluvchilik va rag'batlantiruvchilik vazifasini bajarar ekan, avvalambor aholining daromadlarini turli manfaatlardan kelib chiqqan holda oqilona tartibga solib borish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

⁹ O'zR AV 13.03.2006 y. 1230-4-son bilan ro'yxatga olingan O'zR MV va DSQ Qarori bilan o'zgartirishlar kiritilgan

II BOB. O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN SOLIQLARNING BUDJETGA UNDIRISH AMALIYOTINING TAHLILI

2.1. Jismoniy shaxslarning daromad solig'i bo'yicha majburiyatlarini byudjetga undirilish amaliyotining taxlili

Jismoniy shaxslarning soliq majburiyatları tarkibida ularning daromadidan to'lanadigan soliqlar markazi o'rinni egalaydi. Daromad solig'ini undirish uchun birinchi navbatda olingan jami yillik daromad aniqlanadi.

Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadiga soliq to'lovchi olishi lozim bo'lган (olgan) yoki tekinga olgan pul yoxud boshqa mablag'lar kiradi.




2.1-rasm. Jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlarining tashkiliy chizmasi¹⁰

Yuqoridagi chizmadan ko'rinish turibdii, jismoniy shaxslarning jami yillik daromadlari 4 asosiy turkumga ajratiladi.

Mehnatga haq to'lash shaklida olinadigan daromadlarga jismoniy shaxslarning mehnat shartnomasi bo'yicha qilingan ishlardan va fuqarolik-huquqiy shartnomalar bo'yicha oladigan daromadlari kiradi. Bundan tashqari

¹⁰ Muallif tomonidan shakllantirilgan

mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlarga rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lган to'lovlar (yillik ish yakunlari bo'yicha mukofot, bir yo'la beriladigan mukofotlar, maoshlarga ustamalar, ta'tilga har yilgi qo'shimcha haqlar, ko'p yil ishlaganlik uchun pul mukofoti va boshqalar), kompensatsiya to'lovleri (tabiiy iqlim sharoitlari noqulay bo'lган joylardagi ishlar bilan bog'liq qo'shimcha to'lovlar, og'ir, zararli, o'ta zararli mehnat sharoitlarida ishlaganlik uchun ustamalar, dam olish kunlarida va bayram kunlarida ishlaganlik uchun tarif stavkalariga hamda maoshlarga ustamala va boshqalar) hamda ishlanmagan vaqt uchun haq to'lash (xodimning aybisiz bekor turib qolingga vaqt uchun haq to'lash, mehnatga layoqatini vaqtincha yo'qotgan xodimlarga qo'shimcha haq to'lash, yuridik shaxsning qarori bilan majburiy progul vaqt uchun haq to'lash, oliv o'quv yurtini tamomlaganidan keyin yosh mutaxassislarga ta'til vaqt uchun yuridik shaxs hisobidan to'lanadigan nafaqalar va boshqa shu kabilar) tarzidagi daromadlar ham kiradi.



2.2-rasm. Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlar tuzilishi¹¹

Jismoniy shaxslarning mulkiy daromadlariga foizlar, dvidentlar, mol-mulkni ijara ga berishdan olingan daromadlar, jismoniy shaxslarga tegishli bo'lган mol-

¹¹ Muallif tomonidan shakllantirilgan

mulkni sotishdan olingan daromadlar, roylati va shu kabi qonunchilikda ko'zda tutilgan daromadlar kiradi.

Jismoniy shaxslarning boshqa daromadlari jumlasiga esa davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar, ishsizlik nafaqalari, ijtimoiy nafaqalar va pensiyalar; stipendiyalar; donorlik uchun pul mukofotlari; alimentlar; musobaqalarda, ko'rikarda, tanlovlarda sovrinli o'rinalar uchun beriladigan sovrinlar, pul mukofotlari; yutuqlar; grantlar; jamg'arib boriladigan majburiy pensiya badallari, ular bo'yicha olingan foizlar va boshqa daromadlar kiradi.


Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i ko'pgina mamlakatlardagi singari O'zbekistonda ham progressiv soliq hisoblanadi. Ushbu soliq stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi va o'rnatilgan tartibda davlat soliq idoralari xodimlari tomonidan jismoniy shaxslarga bildiriladi. Har yili belgilangan stavkalar Vazirlar Mahkamasi tomonidan yoki O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan qaytadan ko'rib chiqilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasining soliq qonunchiligiga ko'ra jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- jismoniy shaxslarning ish xaqi, mukofotlar va boshqa daromadlariga solinadigan tabaqalashgan progressiv soliq stavkalari;
- jismoniy shaxslarning divident va foiz tariqasida oladigan daromadiga soliq stavkasi;
- norezident jismoniy shaxslarning daromadlariga to'lov manbaida solinadigan soliq stavkalari;
- imtiyozli soliq stavkalari.

Soliq qonunchiligiga binoan 1998 yildan respublikamizda jismoniy shaxslarning ish haqlari, mukofot pullari va boshqa daromadlaridan soliq stavkasi 15, 25, 35, 40, 45 foiz, ya'ni 5 pog'onali qilib belgilangan edi. 2000 yildan boshlab 4 pog'onali, ya'ni 15, 25, 36, 40 foiz, 2001 yildan esa 3 pog'anliga o'tib, uning stavkasi 12, 25, 30 foiz qilib belgilangan edi.

Bugungi kunda jismoniy shaxslarning daromad solig'i stavkasi quyidagi jadval ma'lumotlari asosida hisoblanadi (2.1-rasm).



3-rasm. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkasining o'zgarish¹²

Soliq solish maqsadlari uchun eng kam ish haqining miqdori yil boshidan e'tiboran ortib (o'sib) boruvchi yakun tarzida hisoblanadi.

2008-2010 yillarda esa kam daromad oluvchi jismoniy shaxslarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida eng kam ish haqining olti baravari miqdorigacha quyi stavka, eng kam ish haqining olti baravari miqdoridan (+1 so'm) o'n baravari miqdorigacha o'rta stavka va eng kam ish haqining o'n baravari miqdoridan (+1 so'm) va undan yuqori summadan yuqori stavka bo'yicha hisoblangan..

2011-2014 yillarda soliq summasi eng kam ish haqining besh baravari miqdorigacha quyi stavka, eng kam ish haqining besh baravari miqdoridan (+1 so'm) o'n baravari miqdorigacha o'rta stavka va eng kam ish haqining o'n baravari miqdoridan (+1 so'm) va undan yuqori summadan yuqori stavka bo'yicha hisoblangan.

¹² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi tayyorlandi

2012 yildan soliq siyosatiga asosan barcha xujalik yurituvchi sub'ektlarda to'lanadigan ish haqini mehnatga haq to'lash yagona tarif stavkasining nol razryadi bekor qilinib, ish haqini 1-razryadidan kam bo'limgan miqdorda belgilash tartibi joriy etildi. Fuqarolarning daromadlarini 1 foizi miqdoridagi summani daromad solig'idan kamaytirilib, ularning jamg'arib boriladigan majburiy pensiya hisob raqamiga qaytarib berish tartibi saqlab qolindi.

Jismoniy shaxslarning daromadlari tarkibiga quyidagi daromadlar kiritilib, ularni jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining minimal stavkasida, ya'ni 9 foizlik stavka bo'yicha soliqqa tortish tartibi belgilandi:

- yashash uchun mo'ljallanmagan joylarni hamda ketma-ket keladigan o'n ikki oylik davr ichida ikki martadan ortiq bitim tuzilgan taqdirda, uy-joylarni realizatsiya qilishdan olinadigan daromadlar;
- jismoniy shaxslardan tekin (shu jumladan hadya shartnomasi bo'yicha) olingan ulushlar, paylar va aktsiyalar tarzidagi daromadlar (agar mazkur ulushlar, paylar va aktsiyalarni berish yaqin qarindoshlar o'rtasida amalga oshirilmagan bo'lsa);

Mol-mulkni ijara berish. Bunda uy-joyning 1 kv.m uchun ijara to'lovining eng kam miqdorini uning joylashgan joyiga qarab tabaqaqlashgan holda belgilandi:

- Toshkent shahri – 3,0 ming so'm;
- Nukus shahri va viloyatga bo'ysunadigan shaHarlarda – 2,0 ming so'm;
- boshqa aholi punktlarida – 1,0 ming so'm.

Norezident jismoniy shaxslarning doimiy muassasa bilan bog'liq bo'limgan holda O'zbekiston Respublikasidagi manbadan olgan daromadlariga ularni to'lash manbaida chegirmalarsiz, quyidagi stavkalar bo'yicha solinadi:

- dividend va foizlar - 10 foiz;
- xatarni sug'urtalash yoki qayta sug'urtalashga to'langan sug'urta mukofotlari - 10 foiz;

- O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlar o'rtasida harakat qatnovida xalqaro aloqa uchun telekommunikatsiyalar yoki transport xizmatlari (fraxtdan daromadlar) - 6 foiz;
- roylati, ijara dan kelgan daromadlar, xizmatlar ko'rsatishdan kelgan daromadlar, shu jumladan boshqaruv bo'yicha xizmatlar, maslahatlarga oid va boshqa daromadlar - 20 foiz;

To'lov manbaida soliq solish, to'lov O'zbekiston Respublikasi ichida yoki undan tashqarida amalga oshirilganidan qat'i nazar, qo'llaniladi.

Jismoniy shaxslarga to'lanadigan dividendlar va foizlarga 10 foizlik stavka bo'yicha to'lov manbaida soliq solinadi.

Bunda soliq solish maqsadida dividendlarga aktsiyalar bo'yicha hamda qimmatli qog'ozlardan olimadigan daromadlar kiradi. Foizlarga qarz majburiyatları va xo'jalik yurituvchi sub'ektning ustav sarmoyasida ulushbay ishtirokidan keladigan daromadlar va boshqalar kiradi.

Jismoniy shaxsning soliqqa tortiladigan daromadi jami yillik daromadga soliqqa tortilmaydigan daromadlarni kiritmasdan, daromadiga soliqdan ozod etiladiganlarni chiqarib tashlab aniqlanadi. Soliqqa tortish maqsadida jismoniy shaxslar daromadi rezidentlar va norezidentlar daromadiga bo'linadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 12 maydag'i 250-son qarori bilan tasdiqlangan Ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlarning 1, 2 va 3-son ro'yxatlariga kiritilgan o'ta zararli, o'ta og'ir, zararli va og'ir sharoitli ishlarda band bo'lган xodimlarning daromadlariga belgilangan stavrular bo'yicha soliq solinadi. Bunda yuqorida aytib o'tilgan fuqarolar toifalaridan daromad solig'i olish darajasi 20 foizdan oshmasligi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining ko'rsatib o'tilgan qarori bilan tasdiqlangan 1-son ro'yxatning 3-qismi hamda 2-son ro'yxatning 1-qismida qayd etilgan ishlarda band bo'lган ayollarning daromadidan soliq olish darajasi ham 20 foizdan oshmasligi lozim.

O'ta zararli, o'ta og'ir, zararli va og'ir sharoitli ishlarda band bo'lgan xodimlarning daromadlariga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish belgilangan tartibga muvofiq amalga oshiriladi .

Noqulay tabiiy-iqlim sharoitlari bilan bog'liq bo'lgan qo'shimcha to'lovlarga (ish stajiga ustamalar, baland tog'lik, dasht va suvsiz tumanlardagi ishlar uchun belgilangan koeffitsientlar bo'yicha to'lovlarga) eng kam stavka bo'yicha soliq solinadi. Bundan tashqari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar tomonidan vaqtinchalik qishloq xo'jaligi ishlariga yuborilgan jismoniy shaxslarning shu ishlarni bajarishdan olingan daromadlariga ham eng kam stavka miqdorida soliq solinadi.

Jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarishda dividendlar va foizlar bo'yicha daromadlar, qo'shimcha to'lovlardan jami daromad tarkibidan hisobdan chiqariladi.

Ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, jismoniy shaxslar daromadidan soliq 2011 yilda jami daromadning 11,1 foizini, 2012 yilda 11,5 foizini, 2013 yilda 11,0 foizini tashkil etgan. Jismoniy shaxslar jami daromad soli-ining byudjet daromadlaridagi pasayish tendentsiyasi asosan soliq yukining pasayib borishi bilan bevosita bog'liqdir.

2.1-jadval

Davlat byudjeti tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'inining ulushi¹³ (mlrd so'mda)

	2011 yil		2012 yil		2013 yil	
	summa	(%)	summa	(%)	summa	(%)
Davlat maqsadli pul jamg' armalarsiz daromadlar-jami	16178,5	100	20614,1	100	25104	100
Jismoniy shaxslar daromadidan soliq, jami soliqlarga nisbatan	1789,7	11,1	2372,7	11,5	2769,7	11,0

¹³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari asosida tayyorlandi

Tadqiqotimiz obyekti hisoblangan Yunusobod tuman mahalliy byudjetlari tarkibida esa jismoniy shaxslarning daromad solig'i ummudavlat soliqlaridan ajratma bo'lib, 2011 yilda 11,8 foizni, 2012 yilda 11,7 foizni va 2013 yilda 11,1 foizni tashkil etgan.

2.2-jadval

Yunusobod tumanida davlat byudjetiga undirilgan daromadlar to'g'risida ma'lumot

№	Daromadlarning nomlanishi	2011	2012	2013	Farqi(+;-)	%da
2	JSh daromad solig'i	58 946,3	71 822,6	88 800,6	29 853,8	150,6
	Jami daromadlar	497 197,6	604 636,7	786 114,5	288 916,9	158,1
	Jami nisbatan %da	11,8	11,7	11,1		

Asosiy ish joyidan olinadigan mehnat haqi to'lovlari va boshqa to'lovlardan jismoniy shaxslarning daromadlariga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish yil boshidan o'sib boruvchi yakun bilan ularni hisoblab yozishning borishiga qarab soliq solinadigan jami daromad summasidan amalga oshiriladi.

Fuqaro bir yil mobaynida asosiy ish (xizmat, o'qish) joyini o'zgartirsa, u yangi ish joyidagi buxgalteriyaga dastlabki ish haqi olguniga qadar belgilangan shakl bo'yicha joriy yilda to'langan daromadlar hamda ushlab qolingan soliq summasi haqidagi ma'lumotnomani taqdim etishi shart.

Yangi ish (xizmat, o'qish) joyi bo'yicha soliqni hisoblab chiqarish taqvim yili boshidan ilgarigi va yangi ish (xizmat, o'qish) joyida olingan jami daromaddan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Avvalgi ish joyidan ma'lumotnomada taqdim etilmagan yoki soliq to'lovchining identifikasiya raqami taqdim etilmagan hollarda soliq solinadigan daromaddan eng yuqori stavka bo'yicha soliq undiriladi. Ma'lumotnomada keyinroq taqdim etilsa, u holda undirilgan umumbelgilangan tartibda qayta hisob-kitob qilinadi.

2014 yildan boshlab turar joylarni ijaraga berishning eng kam miqdorlari kabi noturar joylarni va avtotransport vositalarini ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara haqining eng kam miqdorlari belgilandi.

Jismoniy shaxslarning bunday daromadlariga belgilangan eng kam stavka (ya'ni 7,5 %) bo'yicha soliq solinadi.

2.3-jadval

Mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara haqining eng kam miqdorlari (2014 yil uchun)

	Toshkent shahri	Nukus sh. va viloyat bo'ysunuvidagi shaharlar	boshqa aholi punktlari
turar joy (1 metr. kvadrat uchun)	3000 so'm	2000 so'm	1000 so'm
noturar (1 metr. kvadrat uchun)	6000 so'm	4000 so'm	2000 so'm
avtotransport vositalari, 8 ta o'rindiqqacha bo'lgan engil avtomobillar uchun	1 avtotransport uchun 220 000 so'm		
mikroavtobus, avtobus va yuk avtomobillari uchun	1 avtotransport uchun 430 000 so'm		

Manba: O'zRDSQ ma'lumotlari

Avvalgi asosiy ish joyidagi mehnat majburiyatlarining xodim tomonidan bajarilishi bilan bog'liq mukofot va boshqa to'lovlar unga ishdan bo'shatilganidan so'ng to'langan bo'lsa, mazkur mukofot va to'lovlar umumbelgilangan tartibda ularni to'lash chog'ida jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqqa tortiladi. Bu fuqarolarga to'langan daromadning hamda ushlab qolning soliqning umumiyligi summasi haqida korxona, muassasa, tashkilot bir oy muddatda istiqomat joyidagi davlat soliq xizmati organiga ma'lum qilishi shart.

Asosiy bo'limgan ish joyidan olingan mehnat haqi to'lovlarini va boshqa to'lovlardan jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqni hisoblab chiqarish yil boshidan o'sib boruvchi yakun bilan soliq solinadigan jami daromad

summasidan ularni hisoblab yozishning borishiga qarab (agar bunday daromadlar to'langan bo'lsa), belgilangan stavkalar bo'yicha amalga oshiriladi.

Agar asosiy bo'limgan ish joyidagi mehnat to'lovi bo'yicha daromad oluvchi jismoniy shaxs buxgalteriyaga eng yuqori stavka bo'yicha daromadidan soliq ushlab qolinishi haqida ariza topshirsa, daromadlarni to'lovchi yuridik shaxslar soliq to'lovchining arizasiga ko'ra soliqni ushlab qoladilar.

Asosiy bo'limgan ish joyidan daromad olgan jismoniy shaxslar daromadidan olingan daromadlar, qilingan xarajatlar va ushlangan soliq summasi to'g'risidagi taqdim etilgan deklaratsiya ma'lumotlari bo'yicha soliq xizmati organi tomonidan daromad solig'i yakuniy summasi hisoblab chiqariladi. Rezident jismoniy shaxslarning O'zbekiston Respublikasidan tashqarida (shu jumladan asosiy ish joyidan) olgan daromadlaridan daromad solig'i yakuniy summasini hisoblab chiqarish ham xuddi shunday tartibda amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqni ushlab qolish va byudjetga o'tkazish uchun yuridik shaxs javobgardir. Soliq summasi ushlab qolinmaganda yuridik shaxs ushlab qolinmagan soliq summasini hamda u bilan bog'liq jarima va penyalarni byudjetga to'lashi shart.

Yuridik shaxslar quyidagilarni bajarishi shart hisoblanadi:

1) soliq davri tugaganidan so'ng o'ttiz kun ichida davlat soliq xizmati organlariga daromadlar olgan jismoniy shaxslar to'g'risida (asosiy ish joyi bo'yicha daromadlar olgan jismoniy shaxslardan tashqari) belgilangan shaklda ma'lumotnomalarda taqdim etishi shart, unda quyidagilar aks ettiriladi:

- soliq to'lovchining – jismoniy shaxsning identifikatsiya raqami;
- soliq to'lovchining familiyasi, ismi, otasining ismi, doimiy yashash joyi manzili;
- o'tgan soliq davri yakunlari bo'yicha daromadlarning umumiyligi summasi va jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'inining ushlab qolilgan umumiyligi summasi;
- soliq agentining identifikatsiya raqami;

- soliq agentining nomi, joylashgan eri (pochta manzili);

2) yilning har choragida, hisobot davridan keyingi oyning 25-kuniga qadar, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliya hisobotini taqdim etish muddatida davlat soliq xizmati organlariga hisoblangan va amalda to'langan daromadlar summalar hamda jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'inинг ushlab qolingan summalar to'g'risidagi ma'lumotlarni belgilangan shaklda taqdim etishi shart.

Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliq to'lov manbaida ushlab qolinganda soliq jamg'arib boriladigan tizimda qatnashuvchi fuqarolarning shaxsiy jamg'arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga belgilangan tartibda hisoblab yozilgan badallar chegirilgan holda quyidagi muddatlarda to'lanadi:

a) daromad to'lovchi yuridik shaxslar tomonidan, ushlab qolingan soliq summasi shu maqsadlarda pul mablag'lari olish uchun bankka hujjatlar taqdim etish bilan bir vaqtida byudjetga o'tkaziladi;

b) to'lovni natura holida yoki mahsulotni realizatsiya qilishdan, ishlar bajarish yoxud xizmat ko'rsatishdan tushgan tushumdan to'lovchi yuridik shaxslar tomonidan, ushlab qolingan soliq summasi to'lov amalga oshirilgan oy tugaganidan keyin besh kun ichida byudjetga o'tkaziladi.

Bankda hisobraqamiga ega bo'lgan yuridik shaxslar tomonidan jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqni to'lash sanasi soliq to'lovchi hisobraqamidan mablag'lar hisobdan chiqarilgan kun, boshqalar, shu jumladan jismoniy shaxslar uchun esa - mablag'lar kredit muassasasining kassasiga o'tkazilgan kun hisoblanadi. Jismoniy shaxslarning hisob-kitob varag'idan soliq summasi jismoniy shaxs tomonidan to'langanda, to'lov sanasi jismoniy shaxs hisobraqamidagi mablag'lar hisobdan chiqarilgan kun hisoblanadi.

Davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisoblab chiqarilgan jismoniy shaxslar daromadiga solinadigan soliqni to'lash to'lov xabarnomasida ko'rsatilgan muddatlarda amalga oshirilishi kerak. Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqning yil mobaynida to'lab borilgan summalar

tegishli hisobot yili uchun soliq to'lovchiga hisoblab chiqarilgan soliq hisobiga o'tkaziladi.

Deklaratsiya – soliq idoralariga soliq to'lovchi jismoniy shaxslar tomonidan topshiriladigan va o'z ichiga olingan daromadlar va ushbu daromadlar bilan bog'liq xarajatlar haqidagi ma'lumotlarni aks ettiradigan hamda soliq to'lovchining hisoblangan soliqlarni ixtiyoriy ravishda va belgilangan vaqtida davlat byudjetiga to'lashga majbur etadigan xujjat hisoblanadi.

Soliq kodeksiga ko'ra jismoniy shaxslarning jami yillik daromadi haqidagi deklaratsiya quyidagi hollarda soliq organlariga topshiriladi:

a) mulkiy daromad, fan, adabiyot va san'at asarlarini yaratganlik hamda ulardan foydalanganlik uchun mualliflik haqqi tariqasida olingan daromad (agar bunday daromadlarga to'lov manbaida soliq solinmagan bo'lsa);

b) asosiy bo'limgan ish joyidan (O'zbekiston Respublikasidagi, shuningdek uning hududidan tashqaridagi manbalardan) daromad olgan jismoniy shaxslar tomonidan; (Asosiy bo'limgan ish joyidagi mehnat to'lovi bo'yicha daromad oluvchi jismoniy shaxs buxgalteriyaga eng yuqori stavka bo'yicha daromadidan soliq ushlab qolinishi haqida ariza topshirganlar bundan mustasno);

v) rezident - chet ellik jismoniy shaxslar tomonidan;

Jismoniy shaxslar doimiy istiqomat joyidagi davlat soliq xizmati organlariga jami yillik daromadlari haqida deklaratsiyani quyidagi muddatlarda taqdim etishlari kerak:

- asosiy bo'limgan ish joyidan (O'zbekiston Respublikasidagi, shuningdek uning hududidan tashqaridagi manbalardan) daromad olgan rezident - jismoniy shaxslar hisobot yilidan keyingi yilning 1 apreliдан kechiktirmay;

- rezident - chet ellik jismoniy shaxslar nazarda tutilayotgan daromadlar haqida - O'zbekiston Respublikasiga kelgan kundan boshlab bir oy mobaynida belgilangan shaklda.

Chet ellik jismoniy shaxsning faoliyati taqvimiylar yil mobaynida to'xtagan va u O'zbekiston Respublikasidan chiqib ketadigan bo'lsa, amalda olingan daromadlar haqida jo'nab ketishdan kamida bir oy oldin deklaratsiya taqdim

etilishi kerak. Yakuniy deklaratsiya belgilangan shaklda hisobot yilidan keyingi yilning 1 apreliдан kechiktirmay taqdim etilishi kerak. Agar chet ellik jismoniy shaxs – O’zbekiston Respublikasi rezidenti joriy yilning 1 fevraliga qadar doimiy yashash uchun xorijga chiqib ketayotgan bo’lsa, joriy yil uchun daromadlar bo’yicha deklaratsiya taqdim etilmaydi.

Jismoniy shaxslarning daromadiga solinadigan soliqni to’lash chog’ida deklaratsiya topshirish orqali soliqlar quyidagi muddatlarda to’lanadi:

a) asosiy bo’limgan ish joyidan daromad olgan rezident - jismoniy shaxslar - jami yillik daromad haqidagi deklaratsiya ma’lumotlari bo’yicha hisobot yilidan keyingi yilning 1 iyunidan kechikmay, yil mobaynida qayta hisoblanganda esa,- deklaratsiya davlat soliq xizmati organlariga taqdim etilgan kundan e’tiboran bir oy ichida;

b) jismoniy shaxslar – O’zbekiston Respublikasining rezidentlari hisoblab chiqarilgan daromad solig’ini xorijiy davlatda joylashgan bank hisobvarag’idan chet el valyutasida to’lashi mumkin. Bunda jismoniy shaxslardan olinadigan, milliy valyutada ifodalangan soliq jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i to’langan sanada O’zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan kurs bo’yicha chet el valyutasida qayta hisoblab chiqiladi.

2.2. Jismoniy shaxslarning mol-mulk va yer solig’ini byudjetga undirish amaliyotining taxlili

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga soliq stavkalari O’zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilanadi, ularni soliq to’lovchilarga Moliya vazirligi, Davlat soliq qo’mitasi va uning quyi organlari tomonidan belgilangan tartibda bildiriladi. Soliq stavkalari har yili keyingi moliya yili uchun O’zbekiston Respublikasi Prezidentining makroiqtisodiy ko’rsatkichlar prognozi va davlat byudjeti parametrlari to’g’risidaga qarori asosida qayta ko’rib chiqilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlariga asosan jismoniy shaxslar mol-mulkini baholash bo'yicha organlar belgilagan inventarizatsiya qiymati bo'lmasa soliq undirish uchun Toshkent shahri va viloyat markazlarida 18 480,0 ming so'm, boshqa shaharlar va qishloq joylarda 8 030,0 ming so'm miqdorida mol-mulkning shartli qiymati qabul qilindi.

Ko'chmas mulkka bo'lgan huquqni davlat ro'yxatidan o'tkazuvchi organlarda belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tmagan yangi qurilgan turar joylar bo'yicha jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq mol-mulk shartli qiymatining ikki baravaridan kelib chiqqan holda undiriladi¹⁴.

2.3- jadvalda 2012-2014 yillar mobaynida jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i stavkalarini o'zgarishi keltirilgan.

2.3-jadval

Jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i stavkalarini(foizda)¹⁵

№	Soliq solinadigan ob'ektlarning nomi	Soliq stavkasi, mol-mulkning inventarizatsiya qiymatiga nisbatan %da		
		2012 yil uchun	2013 yil uchun	2014 yil uchun
1	Turar joylar, kvartiralar (shaharlarda joylashgan, umumiy maydoni 200 kv.m dan oshiq bo'lganlari bundan mustasno), dala hovli qurilmalari, garajlar va boshqa imoratlar, xonalar va inshootlar	0,9	1,04	1,2
2	Shaharlarda joylashgan umumiy maydoni quyidagicha bo'lgan turar joylar va kvartiralar:			
	200 kv.m dan oshiq va 500 kv.m gacha bo'lgan	1,1	1,25	1,4
	500 kv.m dan oshiq bo'lgan	1,35	1,55	1,8

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ№ 1675, qarori

¹⁵ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ№ 1245, 1449, 1675, qarorlari

Jismoniy shaxslarning mol–mulk solig’i stavkalari o’rtacha 15 foizga, er solig’i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi 20 foizga indeksatsiya qilindi.

2) Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning bazaviy stavkasi 4 foiz qilib belgilandi (*2013 yilda 3,5 foiz edi*).

2014 yil 1 yanvardan boshlab mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun asosiy vositalarni har yili majburiy qayta baholash bekor qilinib, ularni har uch yilda bir marta o’tkazish belgilandi.

Mulkida soliq solinadigan mol-mulk bo’lgan pensionerlar uchun mol-mulk solig’i bo’yicha soliq solinmaydigan eng kam miqdor umumiy maydonning 60 kv. metri hajmida belgilangan.

2.4-jadval

Davlat byudjeti tarkibida mol-mulk solig’ining ulushi¹⁶

(mlrd so’mda)

Ko’rsatkichlar	2011 yil		2012 yil		2013 yil	
	summa	(%)	summa	(%)	summa	(%)
Davlat maqsadli pul jamg’armalarsiz daromadlar-jami	16178,5	100	20614,1	100	25104,9	100
<i>Resurs to’lovlarini va mol-mulk solig’i</i>	2308,9	14,3	2746,4	13,3	3755,5	14,9
Mol-mulk solig’i, jami soliqlarga nisbatan	490,5	3,0	642,0	3,1	831,4	3,3
Mol-mulk solig’i, jami resurs to’lovlarini va mol-mulk solig’iga nisbatan	490,5	21,2	642,0	23,4	831,4	22,1

Jismoniy shaxslar tomonidan turar joy fondi ob’ektlari noturarjoy fond toifasiga o’tkazilganda yoki ular tomonidan noturarjoy fond ob’ektlari (binolar,

¹⁶ O’zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari asosida tayyorlandi

binodagi xonalar) mulk sifatida xarid qilinganda jismoniy shaxslar mol-mulkiga solinadigan soliq yuridik shaxslar uchun belgilangan stavka bo'yicha to'lanishi belgilangan. Quyidagi jadvalda mol-mulk soli-ining davlat byudjetidagi salmog'i keltirilgan.

Ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, mol-mulk solig'i 2011 yilda 3,0 foizini, 2012 yilda 3,1 foizini, 2013 yilda 3,3% ni tashkil etgan.

Jami resurs to'lovlar va mol-mulk solig'i tarkibida esa mos ravishda 21,2 foizini, 23,4 foizini va 2013 yilda 22,1 foizni tashkil etgan.

Tadqiqotimiz obyekti hisoblangan Yunusobod tuman mahalliy byudjetlari tarkibida esa jismoniy shaxslar mol-mulk solig'i mahalliy byudjetning biriktirilgan, ya'ni o'z daromadi hisoblanib, 2011 yilda 12 966,1 mln. so'mni, va 2013 yilda 20 052,3 mln. so'mni tashkil etgan. Shundan jismoniy shaxslar tomonidan to'langan soliqlar 2011 yilda 3006,6mln. so'mni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2013 yilga kelib 5566,5 mln. so'mga etgan. Buni quyidagi jadval orqali ko'rishimiz mumkin.

2.5-jadval

Yunusobod tumani mahalliy byudjeti tarkibida jismoniy mol-mulk solig'inining ulushi¹⁷ (mln so'mda)

Nº	Daromadlarning nomlanishi	2011	2012	2013	Farqi(+;-)	%da
1.	Mol mulk solig'i	12966,1	15952,1	20052,3	7086, 1	154,7
2.	shundan JSh mol mulk solig'i	3006,6	4844,6	5566,5	2559,9	185,1
	Jami daromadlar	497197,6	604636,7	786114, 5	288916,9	158,1

Soliq qonunchiligidagi ko'ra quyidagi jismoniy shaxslarning mulkida bo'lgan imoratlari, binolari va inshootlariga soliq solinmaydi:

¹⁷ Yunusobod tuman moliya bo'limi ma'lumotlari asosida tayyorlandi

- a) "O'zbekiston Qahramoni", Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan, uchala darajali Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan fuqarolarning;
- b) 1941-1945 yillardagi urush qatnashchilari va partizanlari, ularga tenglashtirilgan shaxslar, ichki ishlar va davlat xavfsizligi organlari tarkibida xizmat qilgan shaxslarning, harakatdagi armiya tarkibiga kirgan harbiy qismlar, shtablar va muassasalarda shtatdagi lavozimlarni egallagan shaxslar, Leningrad shahri qamalida bo'lganlarning va kontsentratsion lagerlarning sobiq yosh tutqunlari, xizmatni Afg'oniston Respublikasida va jangovar harakatlar olib borilgan boshqa mamlakatlarda vaqtincha bo'lgan qo'shinlarning cheklangan kontingenti tarkibida o'tagan harbiy xizmatchilar hamda o'quv va sinov yig'inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majurlarning;
- v) o'n nafar va undan ortiq farzandi bor ayollarning;
- g) Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda ishtirok etganlik uchun imtiyozlar olayotgan fuqarolarning (shu jumladan, u erga vaqtincha yoki xizmat safariga yuborilgan fuqarolarning);
- d) soliq solinmaydigan maydon o'lchami doirasida pensionerlarning, shuningdek I va II guruh nogironlarining;
- e) muddatli xizmat harbiy xizmatchilari va ularning oila a'zolarining - xizmatni o'tash davrida;
- j) harbiy xizmat majburiyatlarini bajarishda yarador, kontuziya bo'lganlik yoki shikastlanganlik oqibatida yoki frontda bo'lish tufayli orttirilgan kasallik oqibatida halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning ota-onalari va boshqa turmush qurmagan rafiqalarining (erlarining);
- Yuqorida nazarda tutilgan imtiyozlar mol-mulk egasining tanlashiga binoan, imtiyoz olish huquqini beruvchi zaruriy hujjatlar soliq organlariga taqdim etilganda, mol-mulkning faqat bir ob'ektiga taalluqli bo'ladi. Bunda mol-mulk imtiyoz oluvchining mulki bo'lgan hollardagina taqdim etiladi.

Yil davomida to'lovchilarda mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozga ega bo'lish huquqi paydo bo'lgan taqdirda ular ko'rsatilgan to'lovlardan ana shu huquq paydo bo'lgan oydan boshlab ozod etiladilar.

Yil o'rtasida mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyoz huquqini yo'qotganda soliq solish ushbu huquq yo'qolgan oydan keyingi oydan boshlab amalga oshiriladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq davlat soliq xizmati organlari tomonidan hisoblab chiqariladi.

Mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozlar huquqiga ega bo'lgan shaxslar zarur hujjatlarni davlat soliq xizmati organlariga taqdim etadilar.

Imoratlar, binolar va inshootlar uchun mol-mulk solig'i ularning har yil 1 yanvardagi holati yuzasidan texnik inventarizatsiyalashning hududiy kadastr byurolari taqdim etadigan inventarizatsiya qiymatiga doir ma'lumotlar asosida hisoblab chiqariladi, bunday ma'lumotlar bo'lмаган taqdirda esa O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarori bilan belgilangan mol-mulkning shartli qiymati qabul qilinadi.

Bir necha mulkdorning ulushbay asosidagi umumiylar bo'lgan imoratlar, binolar va inshootlar uchun mol-mulk solig'i har bir mulkdor tomonidan ushbu imoratlar, binolar va inshootlardi ulushiga mutanosib ravishda to'lanadi. Yangi imoratlar, binolar va inshootlar bo'yicha soliq ular barpo etilgan yoki olingan yildan keyingi yilning boshidan e'tiboran to'lanadi.

Meros bo'yicha o'tgan mol-mulkdan soliq merosxo'rlardan meros ochilgan paytdan boshlab undiriladi. Mol-mulk yo'q qilingan, butunlay vayron bo'lgan hollarda mol-mulk solig'i undirish ular yo'q qilingan yoki butunlay vayron bo'lgan oydan e'tiboran to'xtatiladi.

Mol-mulkka mulk huquqi taqvimiylar yil davomida bir mulkdordan boshqasiga o'tganda soliqni birinchi mulkdor o'sha yilning 1 yanvaridan bu mol-mulkka mulk huquqini yo'qotgan oyning boshigacha to'laydi, yangi mulkdor esa - mulk huquqini qo'lga kiritgan oydan e'tiboran to'laydi.

Taqvimiylar yil davomida imtiozga ega bo'lish huquqi paydo bo'lga taqdirda mol-mulk solig'i ana shunday huquq vujudga kelgan oydan e'tiboran qayta hisoblab chiqiladi.

Mol-mulk solig'ini to'lash haqidagi to'lov xabarnomalari to'lovchilarga davlat soliq xizmati organlari tomonidan har yili 1 maydan kechiktirmay topshiriladi. Hisoblangan yillik soliq miqdori teng ulushlarda ikki muddatda - 15 iyun va 15 dekabrdan kechiktirmay mahalliy byudjetga to'lanadi.

Agar soliq to'lovchi tomonidan ortiqcha summalar to'langan bo'lsa, soliq va yig'imlar bo'yicha qarzlar mavjud bo'lmasa, ushbu summalar uning yozma arizasiga ko'ra o'ttiz kun ichida soliq to'lovchiga qaytariladi yoki bo'lg'usi to'lovlari hisobiga qayd etiladi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq to'lovchilari hisobi davlat soliq xizmati organlari tomonidan har bir yilning 1 yanvaridagi holat bo'yicha shahar va tumanlar bo'yicha, texnik inventarizatsiyalash hududiy kadastr byurosida mavjud bo'lga imoratlar egalari to'g'risidagi ma'lumotlarga binoan o'tkaziladi.

Jismoniy shaxslardan undiriladigan er solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezident qarori bilan belgilanadi va soliq to'lovchilarga Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va uning quyi organlari tomonidan belgilangan tartibda xabar qilinadi.

Berilgan erlardan ikki yil davomida foydalanmagan jismoniy shaxslardan er solig'i uch baravar miqdorida undiriladi.

Jismoniy shaxslar foydalanadigan (shu jumladan, er solig'ini to'lashdan ozod etilgan), davlat hokimiyati organlari tomonidan ajratilgan maydonlardan ortiqcha er uchastkalari uchun er solig'i jismoniy shaxslar uchun 1,5 koeffitsientini qo'llagan holda to'lanadi. Davlat hokimiyati organlari tomonidan ajratilgan maydonlardan ortiqcha foydalaniladigan erlar uchun yuqorida ko'rsatilgan koeffitsientni qo'llagan holda er solig'i to'lanmagan taqdirda soliq

to'lovchilarga nisbatan qonun hujjatlariga muvofiq moliyaviy jazo choralari qo'llanadi.

Davlat hokimiyati organlari tomonidan ajratilgan er uchastkalari maydoni er berish to'g'risida davlat hokimiyati organlarining qarori, erga egalik qilish yoki undan foydalanish huquqi uchun davlat dalolatnomasi, erni ijaraga olish shartnomasi, er uchastkasiga bo'lgan huquqlarni ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi guvohnoma va er uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlaydigan boshqa hujjatlarga ko'ra belgilanadi.

Er uchastkasiga nisbatan mulk, egalik qilish yoki undan foydalanish huquqini tasdiqlaydigan hujjatlar mavjud bo'lmasa, soliq butun maydon uchun yuqorida ko'rsatilgan oshirish koeffitsientlarini qo'llagan holda to'lanadi.

Jismoniy shaxslarga tadbirkorlik faoliyati uchun berilgan er uchastkalaridan soliq korxonalar, muassasalar va tashkilotlar uchun tasdiqlangan stavkalar bo'yicha undiriladi. Jismoniy shaxslar uchun er solig'ini hisoblab chiqarish do'konlar, oshxonalar, ustaxonalar va tadbirkorlik faoliyatida foydalaniladigan boshqa ob'ektlar uchun foydalaniladigan er uchastkalari uchun amalga oshiriladi.

Soliq kodeksiga ko'ra quyidagi jismoniy shaxslar er solig'idan ozod qilinadilar:

- yaylov chorvachiligining cho'ponlari, yilqiboqarlar, mexanizatorlari, veterinar vrachlari va texniklari, boshqa mutaxassislari va ishchilar;
- "O'zbekiston Qahramoni", Sovet Ittifoqi Qahramoni, Mehnat Qahramoni unvonlariga sazovor bo'lgan shaxslar, uchala darajali Shuhrat ordeni bilan taqdirlanganlar, 1941-1945 yillardagi urush nogironlari va qatnashchilar;
- xizmatni Afg'oniston Respublikasida va jangovar harakatlar olib borilgan boshqa mamlakatlarda vaqtincha bo'lgan qo'shnlarning cheklangan kontingenti tarkibida o'tagan harbiy xizmatchilar hamda o'quv va sinov yig'inlariga chaqirilgan harbiy xizmatga majburlar;
- haqiqiy muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan harbiy xizmatchilarning oilalari - xizmat muddatiga;
- I va II guruh nogironlari;

- yolg'iz pensionerlar. Soliq solish maqsadlari uchun yolg'iz pensionerlar deganda bir o'zлari yoki voyaga etmagan bolalari yoki nogiron bolasi bilan bиргаликда alohida uyda, kvartira yoki yotoqxonada yashaydigan pensionerlar tushuniladi;
- boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalar. Soliq solish maqsadlarida boquvchisini yo'qotgan ko'p bolali oilalar deganda ota-onadan biri yoki ikkalasi vafot etgan hamda oilada 16 yoshga etmagan 5 va undan ortiq bola bo'lган oilalar tushuniladi;
- Chernobil AESdagi falokat oqibatlarini tugatishda ishtirok etgan shaxslar;
- ko'chirib keltirilgan fuqarolar kelib joylashgan er uchastkalari bo'yicha - er uchastkalari berilgan vaqtdan e'tiboran besh yilga;
- shaxsiy pensiya tayinlangan shaxslar;

Yer solig'i to'lanmaydigan er uchastkalarining maydonlari er uchastkasiga huquqni tasdiqlaydigan hujjatlarga binoan qabul qilinadi.

Imtiyoz huquqi er solig'ini to'lashdan ozod etilgan shaxslar yashaydigan va bиргаликда xo'jalik yuritadigan butun oilaga tatbiq etiladi.

Jismoniy shaxslar uchun er solig'ini davlat soliq organlarining xodimlari hisoblab chiqaradi. Davlat soliq xizmati organlari er uchastkalari mulkdorlari, er egalari yoki erdan foydalanuvchilar yoki ijara chilar bo'lган jismoniy shaxslarning muntazam hisobini yuritadilar.

Soliq to'lanishi to'g'risidagi to'lov xabarnomalari jismoniy shaxslarga davlat soliq organlari tomonidan har yili, joriy yilning 1 mayidan kechiktirmay topshiriladi.

Er uchastkalarining maydoni o'zgarganda va yil davomida imtiyoz huquqi paydo bo'lгanda yoki bekor qilinganda davlat soliq organlari bir oy davomida soliqni qayta hisob-kitob qilishlari va soliq to'lovchiga to'lash muddatlari o'zgarganini hisobga olgan holda yangi yoki qo'shimcha to'lov xabarnomasini taqdim etishlari shart.

Jismoniy shaxslarga qishloq joylarda shaxsiy yordamchi xo'jalik (dehqon xo'jaligi) yuritish uchun berilgan er uchastkalari tomorqa erlardan va jamoat erlarida qo'shimcha ajratilgan er uchastkalaridan iborat bo'lshi mumkin. Bunday holda tomorqa erlar maydoni er kadastro ma'lumotlari bo'yicha qabul qilinib, yuz bergen o'zgarishlar har yili naturada aniqlashtiriladi. Jamoat erlarida qo'shimcha ajratilgan er uchastkalari maydoni xo'jaliklarning ma'lumotlari bo'yicha hisobga olinib, har yili aniqlashtiriladi.

Agar jismoniy shaxs yakka tartibda uy-joy qurilishi yoki shaxsiy yordamchi xo'jalik (dehqon xo'jaligi) yuritish uchun berilgan er uchastkasida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullansa yoki erdan maqsadli foydalanishni o'zgartirmasdan o'z uyini ofis sifatida rasmiylashtirsa, bunda undan er solig'i yakka tartibda uy-joy qurilishi yoki dehqon xo'jaligini yuritish uchun berilgan erlar uchun belgilangan stavkalar bo'yicha undiriladi.

2.6-jadval

Davlat byudjeti tarkibida yer solig'inining ulushi¹⁸

(mlrd so'mda)

	2010 yil		2011 yil		2012 yil	
	summa	(%)	summa	(%)	summ a	(%)
Davlat maqsadli pul jamg'armalarsiz daromadlar-jami	13 116,4	100	16178,5	100	20614,1	100
<i>Resurs to'lovlar va mol-mulk solig'i</i>	1 974,1	15,1	2308,9	14,3	2746,4	13,3
Yer solig'i, jami soliqlarga nisbatan	303,9	2,3	346,8	2,1	446,0	2,2
Yer solig'i, jami resurs to'lovlar va mol-mulk solig'iga nisbatan	303,9	15,4	346,8	15,0	446,0	16,2

Ko'p xonardonli turar joylarda yashaydigan jismoniy shaxslardan er solig'i undirilmaydi. Xonadondan yoki ko'p xonardonli turar joylarning bir qismidan odamlarning yashashi bilan bog'liq bo'limgan maqsadlarda foydalanilganda,

¹⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ№ 1245, 1449, 1675, qarorlari asosida tayyorlandi

belgilangan tartibda xonadonning umumiyligi maydonidan kelib chiqib, er solig'inining tegishli hissasi undiriladi.

Ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, yer solig'i 2010 yilda jami daromadning 2,3 foizini, 2011 yilda 2,2 foizini, 2012 yilda 2,2 foizini, jami resurs to'lovlari va mol-mulk solig'i tarkibida esa mos ravishda 15,4 foizini, 15,0 foizini, 16,2 foizini tashkil etgan.

Yer solig'i to'lovchi jismoniy shaxslar davlat soliq xizmati organlarining qarorlari va ular mansabdar shaxslarining harakatlari ustidan davlat soliq xizmatining yuqori organlari yoki sudga shikoyat qilish huquqiga egadirlar. Davlat soliq xizmati organlari soliqning to'g'ri hisoblab chiqarilishi va o'z vaqtida to'lanishi ustidan belgilangan qonun hujjatlariga muvofiq nazoratni amalga oshiradilar.

2.3. Jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan boshqa soliqlarning byudjetga undirish amaliyotining taxlili

Qat'iy belgilangan miqdordlardagi daromad solig'ini tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar har oyda, mustaqil ravishda faoliyat amalga oshiriladigan oyning 25-kunigacha to'laydilar.

Masalan, jismoniy shaxslar daromadidan qat'iy belgilangan soliq:

2009 yil yanvari uchun 2009 yilning 25 yanvariga qadar;

2009 yil fevrali uchun 2009 yilning 25 fevraliga qadar belgilab qo'yilgan.

Qat'iy belgilangan soliq yuridik shaxsni tashkil etmagan tadbirkor tomonidan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan joyda, agar O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida boshqa qoida nazarda tutilmagan bo'lsa, to'lanadi.

Tadbirkorlik faoliyati bilan endi shug'ullana boshlagan jismoniy shaxslar qat'iy belgilangan stavkalar bo'yicha daromad solig'ini belgilangan tartibda, ro'yxatga olish paytida mustaqil to'laydilar. Qat'iy belgilangan soliq faoliyat boshlangan kundan qat'i-nazar bir oy uchun to'lanadi. Misol uchun, oyning boshida emas, balki ikkinchi yarmida boshlasa ham to'liq oy uchun to'lanadi.

2.7-jadval

Yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyat bilan shug'ullanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan qat'iy belgilangan soliq stavkalari¹⁹

№	Faoliyat turi	Qat'iy belgilangan soliqning bir oydag'i stavkasi (eng kam ish haqiga karrali miqdorlarda)					
		Toshkent shahri		viloyatdagi shaharlar		Tumanlar, shu jumladan qishloq joylari	
		2011 yil	2012 yil	2011 yil	2012 yil	2011 yil	2012 yil
1.	Chakana savdo:						
	oziq-ovqat tovarlari bilan	9,0	9,0	6,0	6,0	3,0	3,0
	dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan	5,0	5,0	4,0	4,0	2,0	2,0
	nooziq-ovqat tovarlari bilan	10,0	10,0	6,5	6,5	3,0	3,0
	oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlari bilan (turg'un shoxobchaldagi aralash savdo)	10,0	10,0	6,5	6,5	3,0	3,0
2.	Maishiy xizmatlar, 3-bandda ko'rsatilganlardan tashqari	5,5	3,5	2,0	1,5	1,0	0,5
3.	Sartaroshlik xizmatlari ko'rsatish, manikyur, pedikyur, kosmetolog xizmatlari va boshqa shunga o'xshash xizmatlar	6,5	4,0	3,0	2,0	2,0	1,0
4.	O'z mahsulotini ishlab chiqarish va sotish, shu jumladan milliy shirinliklar va non-bulka mahsulotlari tayyorlash va sotish, shuningdek uy sharoitlarida yoki davlat hokimiyati organlarining qarori bilan maxsus ajratilgan joylarda o'tirish joylari tashkil qilmasdan donalab sotiladigan ovqatlarning ayrim turlarini tayyorlash va sotish	3,5	2,0	2,5	1,5	1,5	1,0
5.	Boshqa faoliyat turlari, mol-mulkni ijara berishdan tashqari	5,0	2,0	3,0	1,5	2,0	1,0
6.	Avtomobil transportida yuk tashishga oid xizmatlar:						
	3 tonnagacha yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobili uchun	5,5	2,0	4,0	2,0	3,0	2,0
	8 tonnagacha yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobili uchun	9,0	3,0	7,5	3,0	5,0	3,0
	8 tonnadan ortiq yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobili uchun	13,0	4,0	9,0	4,0	8,0	4,0

¹⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ№ 1449, 1675, qarorlari asosida tayyorlandi

Yuqoridagi 7-jadval da yuridik shaxs maqomini olmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar to'laydigan qat'iy belgilangan soliq stavkalari keltirilgan.

Ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, chakana savdo bo'yicha soliq stavkalari o'zgarmagan, maishiy xizmatlarning barcha turlari hamda sartaroshlik xizmatlari ko'rsatish, manikyur, pedikyur, kosmetolog xizmatlari va boshqa shunga o'xshash xizmatlar uchun Toshkent shahrida 2%ga, viloyatdagi shaharlarda va tumanlar, shu jumladan qishloq joylari 0,5-1%ga kamaygan. O'z mahsulotini ishlab chiqarish va sotish, shu jumladan milliy shirinliklar va non-bulka mahsulotlari tayyorlash va sotish, shuningdek uy sharoitlarida yoki davlat hokimiyati organlarining qarori bilan maxsus ajratilgan joylarda o'tirish joylari tashkil qilmasdan donalab sotiladigan ovqatlarning ayrim turlarini tayyorlash va sotish bo'yicha soliq stavkalari mos ravishda 1,5%, 15 va 0,5%ga kamaygan. Avtomobil transportida yuk tashishga oid xizmatlar bo'yicha soliq stavkalarida ham jiddiy pasayish kuzatilib, barcha hududlarda 3 tonnagacha yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun 2 barobar minimal ish haqi, 8 tonnagacha yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun 3 barobar minimal ish haqi hamda 8 tonnadan ortiq yuk ko'tarish quvvatiga ega yuk avtomobillari uchun 4 barobar minimal ish haqi miqdorida belgilab qo'yildi.

Jismoniy shaxslardan tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha olinadigan qat'iy belgilangan soliq stavkalari 2010-2012 yillarda o'zgarishsiz qolgan(8-jadval) .

Taqdim etilgan qat'iy belgilangan soliq hisob-kitobida hisobga olinmagan fizik ko'rsatkichlar aniqlangan holatda bu hol soliqqa tortish ob'ektini yashirish sifatida qaraladi.

Tadbirkor o'z faoliyatini muayyan oyga (oylarga) turli sabablar (oilaviy ahvoli, kasallik, vaqtincha boshqa erga ketish va hokazo) bilan to'xtatgan hollarda, u faoliyatini to'xtatishgacha davlat soliq xizmati organlariga faoliyatni

vaqtincha to'xtatishi haqida ariza taqdim etishi va davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risida guvohnomasini topshirishi kerak.

2.8-jadval

Jismoniy shaxslardan tadbirkorlik faoliyatining ayrim turlari bo'yicha olinadigan qat'iy belgilangan soliq stavkalari²⁰

№	Faoliyat turi	Soliq to'lovchilar	Mazkur faoliyat turini xarakterlovchi fizik ko'rsatkichlar	Fizik ko'rsatkich birligiga har oyda qat'iy belgilangan soliq stavkasi (eng kam ish haqiga birlik uchun karrali miqdorlarda)		
				Toshkent shahri	viloyatla rdagi shaharlar	tumanlar, shu jumldan qishloq joylari
2.	Bolalar o'yin avtomatlari	yuridik va jismoniy shaxslar	Jihozlanagn o'rinalar soni (bir birlikda)	3,0	2,0	1,0

Hokimiyatlar tomonidan berilgan yakka tartibdagi tadbirkorning davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risida guvohnomasi topshirilgandagina faoliyat vaqtincha to'xtatilgan deb hisoblanadi. Bunda tadbirkor davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risida guvohnomasini topshirgandan keyin qat'iy belgilangan soliqni o'z faoliyatini amalga oshirmaydigan oyda to'lashdan ozod etiladi.

Davlat soliq xizmati organlariga kelib tushgan ariza va davlat ro'yxatidan o'tganlik to'g'risida guvohnoma majburiy tartibda, kelib tushgan kunida kelgan xat-xabarlar daftarida ro'yxatga olinishi kerak.

Yuridik shaxsni tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanadigan va daromadidan qat'iy belgilangan stavkalar bo'yicha soliq to'laydigan jismoniy shaxslarga jami daromadni belgilash va undan tegishli chegirmalar qilish tartibi O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga muvofiq tatbiq etilmaydi.

²⁰ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ№, 1449, 1675, qarorlari

Jismoniy shaxslar tomonidan tadbirkorlik faoliyati uyushmalar, ittifoqlar va shu kabilarga birlashish, ishlarni o'z transportida bajarishga doir fuqarolik-huquqiy tusdagi shartnomalar tuzish yo'li bilan amalga oshirilgan taqdirda ushbu jismoniy shaxslar qat'iy soliqni belgilangan stavkalar bo'yicha to'laydilar.

Jismoniy shaxs:

- faoliyatning bir necha turi bilan shug'ullansa, soliqni faoliyatning har bir turi uchun alohida to'laydi;
- tadbirkorlik faoliyatini ijara olingan uskuna va xonada, shu jumladan ishonchnoma bo'yicha transportda amalga oshirsa, ijara beruvchilar to'g'risida yashash joyidagi davlat soliq xizmati organiga axborot taqdim etishi kerak, unda ijara beruvchining familiyasi, ismi, otasining ismi, pasport ma'lumotlari, shuningdek ijara to'lovining summasi va ijara muddati ko'rsatiladi. Mazkur axborot ijara olingan uskuna va xonada, shu jumladan ishonchnoma bo'yicha transportda faoliyatni amalga oshirishga qadar taqdim etiladi.

2.9-jadval

Davlat byudjeti tarkibida tadbirkorlik faoliyatidan undiriladigan qat'iy soliqning ulushi²¹ (mlrd so'mda)

	2010 yil		2011 yil		2012 yil	
	summa	(%)	summa	(%)	summ a	(%)
Davlat maqsadli pul jamg'armalarsiz daromadlar-jami	13 116,4	100	16178,5	100	20614,1	100
<i>To'g'ri soliqlar</i>	3 420,6	26,7	4238,7	26,2	5196,4	25,2
Tadbirkorlik faoliyatidan qat'iy belgilangan soliq, jami soliqlarga nisbatan	139,1	1,1	187,5	1,1	218,1	1,1
Jami to'g'ri soliqlarga nisbatan	139,1	4,1	187,5	4,4	218,1	4,2

Ma'lumotlardan ko'rilib turibdiki, tadbirkorlik faoliyatidan qat'iy belgilangan soliq 2010-2012 yillarda jami daromadning 1,1 foizini, va to'g'ri

²¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ№ 1245, 1449, 1675, qarorlari asosida tayyorlandi

soliqlr tarkibida esa esa mos ravishda 4,1 foizini, 4,4 foizini va 4,2 foizini tashkil etgan.

Avtotransport vositalarini shu jumladan birlashmalar, uyushmalar va boshqa xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga ijara topshiradigan jismoniy shaxslar qat'iy belgilangan soliqni jismoniy shaxslar uchun yo'lovchilar va yuklarni avtomobil transportida tashish bo'yicha xizmatlarni amalga oshirishdan kelib chiqib belgilangan stavkalar bo'yicha to'laydilar.

Jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg'isi va gaz iste'moliga olinadigan soliq stavkalari har yili O'zbekiston Respublikasi Prezident qarori bilan belgilanadi, uning miqdorlari O'zbekiston Respublikasining butun hududida yagona hisoblanadi.

Quyidagi jadvalda 2010-2012 yillar uchun soliq stavkalari keltirilgan(10 - jadval)

2.10-jadval

Jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg'isi va gaz iste'moliga olinadigan soliq stavkalari²²

Iste'mol uchun jismoniy shaxslardan undiriladigan soliq: [*]	2010 yil	2011 yil	2012 yil
transport vositalari uchun benzin, dizel yoqilg'isi, 1 litr uchun	145 so'm	175 so'm	200 so'm
transport vositalariga sikelgan gaz, 1 kub metr uchun	145 so'm	175 so'm	200 so'm
transport vositalari uchun suyultirilgan gaz , 1 litr uchun	x	140 so'm	165 so'm

Soliq summasi chakana narxga qo'shimcha ravishda belgilanadi va jismoniy shaxs - xaridorga beriladigan chekda alohida satr bilan ko'rsatiladi.

Soliq summasi jismoniy shaxslarga sotiladigan benzin, dizel yonilg'isi va gaz uchun mablag' to'lanishi bilan bir vaqtida undiriladi.

²² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ№ 1245, 1449, 1675, qarorlari asosida tayyorlandi

Soliq summasi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$\mathbf{N} = \mathbf{V} \times \mathbf{St},$$

bu erda:

N - hisoblab yozilgan soliq;

V - jismoniy shaxslarga sotilayotgan benzin, dizel yonilg'isi yoki gazning natural ifodadagi hajmi;

St – soliq stavkasi.

Hisoblab chiqarilgan va ushlangan soliq summasi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun tushum deb hisoblanmaydi hamda boshqa to'lanadigan soliqlar, yig'imlar va majburiy to'lovlar bo'yicha soliq solish ob'ekti yoki bazasi bo'lmaydi.

Soliq to'lovchilar sotilgan benzin, dizel yonilg'isi, gaz hisobi hamda hisoblangan soliq summalarini hisobini alohida yuritadilar.

Byudjet bilan hisob-kitoblar hisobi "Byudjet bilan hisob-kitoblar" hisobvarag'i bo'yicha - "Jismoniy shaxslardan transport vositalari uchun benzin, dizel yonilg'isi va gaz iste'moliga soliq" ilova hisobvarag'ida yuritiladi, soliqni o'tkazish "Hisob-kitob varag'i" hisobvarag'i bo'yicha aks ettiriladi.

Undirilgan soliq mahalliy byudjetga O'zbekiston Respublikasi byudjetlari daromad va xarajatlarining tegishli tasnifiga ko'ra bo'lim va paragrafga to'lanadi.

Joriy o'n kunlik to'lovlar hisobga olingan soliq bo'yicha hisob-kitob (13-ilova) avtomobilga yonilg'i quyish shoxobchalari joylashgan erdagiga davlat soliq xizmati organlariga:

-korxonalar tomonidan (mikrofirmalar va kichik korxonalardan tashqari) – har oyda hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha esa yillik moliyaviy hisobot taqdim etiladigan muddatda taqdim etiladi;

-mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan – yilning har choragida hisobot davridan keyingi oyning 25-kunidan kechiktirmay, yil yakunlari bo'yicha

esa - yillik moliyaviy hisobotni taqdim etish muddatida, belgilangan shaklda taqdim etiladi.

Soliq bank muassasalari orqali har o'n kunda, benzin, dizel yonilg'isi va gaz jismoniy shaxslarga sotilgan oy o'n kunligi tugaganidan so'ng uchinchi kundan kechiktirmay to'lanadi.

Soliq hisobotida ko'rsatilgan ma'lumotlarning xaqqoniyligiga javobgarlik soliq to'lovchining zimmasiga yuklanadi.

2.11-jadval

Davlat byudjeti jismoniy shaxslardan benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moli uchun soliqning ulushi²³

(mlrd so'mda)

	2010 yil		2011 yil		2012 yil	
	summa	(%)	summa	(%)	summa	(%)
Davlat maqsadli pul jamg' armalarsiz daromadlar-jami	13 116,4	100	16178,5	100	20614,1	100
<i>Egri soliqlar</i>	6 973,8	53,5	8656,8	53,5	11187,8	54,3
Jismoniy shaxslardan benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moli uchun soliq, jami soliqlarga nisbatan	315,5	2,4	430,3	2,6	555,4	2,7
Jismoniy shaxslardan benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moli uchun soliq, jami egri soliqlarga nisbatan	315,5	4,5	430,3	5,0	555,4	5,0

Ma'lumotlardan ko'rilib turibdiki, jismoniy shaxslardan benzin, dizel yoqilg'isi va gaz iste'moli uchun soliq 2010 yilda 2,4 foizni, 2011 yilda 2,6 yfoizni va 2012 yilda 2,7 foizxni hamda bu soliq egri soliqlarning 2010 yilda 4,5 foizini va 2011-2012 yilda 5,0 foizini tashkil etgan.

²³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ№ 1245, 1449, 1675 qarorlari asosida tayyorlandi

2- bob bo'yicha xulosalar

Moddiy naf tarzidagi daromadlar jumlasiga yuridik shaxs tomonidan jismoniy shaxs manfaatlarini ko'zlab, tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini, mulkiy huquqlarni to'lash, shu jumladan: jismoniy shaxslarning bolalarini mакtabgacha ta'lim muassasalarida o'qitish, tarbiyalash; kommunal xizmatlar, xodimlarga berilgan uy-joy haqini, uy-joydan foydalanish xarajatlari yotoqxonadagi joylar haqini yoki ularning o'rmini qoplash qiymatini to'lash; oziq-ovqat, oylik yo'l chiptalari yoki ularning o'rmini qoplash qiymatini to'lash; sanatoriy-kurortlarda davolanish yo'llanmalari qiymatini, dam olish, statsionar va ambulatoriyaga qatnab davolanish haqini yoki ularning o'rmini qoplash qiymatini to'lash kabilar kiradi.

Yuqormidagi ma'lumotlaridan ko'rindiki, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining eng kam ish haqining 5 barobarigacha bo'lган miqdorda o'rnatilgan soliq stavkasi oxirgi to'rt yil davomida 1 punktdan kamaytirib kelinmoqda, natijada soliqlarning sostiallashuvi oshib, kam daromadga ega bo'lган aholining moliyaviy holati yaxshilanishi uchun zamin yaratilmoqda.

III. BOB. IQTISODIYOTNI MODERNIZATSIYALASH SHAROITIDA JISMONIY SHAXSLARDAN OLINADIGAN SOLIQLARNI BUDJETGA UNDIRISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

3.1. 2014 yilgi soliq siyosatida jismoniy shaxslar soliq majburiyatlarini optimalashtirish imkoniyatlari.

Davlatimiz Rahbari tomonidan belgilab berilgan ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash, tadbirkorlik sub'ektlari uchun qulay imkoniyat va shart-sharoitlar yaratish vazifalaridan, shuningdek 2014 yil uchun soliq va byudjet siyosatining asosiy yo'nalishlaridan kelib chiqib, soliq yukini yanada pasaytirishga, soliq tizimini soddashtirishga va soliq ma'murchiligini takomillashtirishga qaratilgan 4 ta muhim hujjat qabul qilindi.

Jismoniy shaxslarning mol-mulk solig'i stavkalari o'rtacha 15 foizga, er solig'i va suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq stavkasi 20 foizga indeksatsiya qilindi.

2) Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning bazaviy stavkasi 4 foiz qilib belgilandi (*2013 yilda 3,5 foiz edi*).

2014 yil 1 yanvardan boshlab mikrofirmalar va kichik korxonalar uchun asosiy vositalarni har yili majburiy qayta baholash bekor qilinib, ularni har uch yilda bir marta o'tkazish belgilandi.

2014 yilgi soliq siyosati kontseptsiyasidan kelib chiqqan holda soliqlarni to'lash muddatlarini bixillashtirish va soddashtirish hamda soliq to'lovchining ma'muriy xarajatlarini qisqartirish maqsadida soliq kodeksining 20 ta moddasiga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Jumladan jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarga taaluqli o'zgartirish va qo'shimchalar quydagilardan iborat :

Soliq qarzini majburiy undirish yuzasidan inkasso topshiriqnomasi yuborilishini soliq va boshqa majburiy to'lovlarini to'lash muddati tugagandan keyin jismoniy shaxslarga, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlarga o'ttiz kundan kechiktirmasdan taqdim etilishi nazarda tutilgan²⁴.

²⁴ O'zbekiston Respubliasi Soliq kodeksining 63-moddasi

Davlat notarial idoralari ko'chmas mulk oldi-sotdi shartnomalari, mol-mulk ijariasi shartnomalari tasdiqlanganligi to'g'risida o'zлari joylashgan erdagи davlat soliq xizmati organlariga ma'lum qilishi shart²⁵.

Mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlarga O'zbekiston Respublikasi mudofaa, ichki ishlar, favqulodda vaziyatlar vazirliklarining, O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik xizmatining harbiy xizmatchilariga, ichki ishlar organlarining oddiy askarlar, serjantlar va ofitserlar tarkibiga hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat bojaxona qo'mitasining xodimlariga xizmatni o'tashi (xizmat majburiyatlarini bajarishi) munosabati bilan to'lanadigan pul ta'minoti, pul mukofotlari va boshqa to'lovlar ham kiritildi²⁶.

Ish haqi fondidan olinadigan soliqlarning soliq solish ob'ektlarini bixillashtirish, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i va ijtimoiy to'lovlar bo'yicha soliq solinadigan bazani yaqinlashtirish maqsadida, soliq to'lovchi tomonidan yuridik shaxsdan olingen moddiy naf tarzidagi daromadlar tarkibidan oziq-ovqat, yo'l chiptalari qiymatini to'lash yoki oziq-ovqat, yo'l chiptalari qiymatini qoplash ko'rinishidagi to'lovlarni mehnatga haq to'lash tarzidagi daromadlarga kiramidan kompensatsiya to'lovlari jumlasiga kiritildi.²⁷

Hisobot davri uchun er solig'ini to'lash bo'yicha majburiyat belgilangan to'lov muddatidan keyin yuzaga kelgan taqdirda, ushbu summani to'lash mazkur majburiyat yuzaga kelgan sanadan boshlab o'ttiz kundan kechiktirmay amalga oshirilishi lozim.²⁸

Soliq davri uchun jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan er solig'i va mol-mulk solig'ini to'lash muddatlari o'zgartirilib, hisobot yilining 15 oktyabri qilib belgilandi²⁹.

Yer resurslardan oqilona va samarali foydalanishni, shuningdek vakolatli organlarda yer uchaskalarga bo'lган huquqni o'z vaqtida rasmiy lashtirilishini

²⁵ O'zbekiston Respubliasi Soliq kodeksining 84-moddasi

²⁶ O'zbekiston Respubliasi Soliq kodeksining 172-moddasi

²⁷ O'zbekiston Respubliasi Soliq kodeksining 174 va 177-moddalari

²⁸ O'zbekiston Respubliasi Soliq kodeksining 286-moddasi

²⁹ O'zbekiston Respubliasi Soliq kodeksining 277 va 294-moddalari

ta'minlash maqsadida er uchastkalaridan hujatlarsiz yoki er uchastkasiga bo'lgan huquqni tasdiqlovchi hujatlarda ko'rsatilganidan kattaroq hajmda foydalanylarda yer solig'i summasiga ekvivalent miqdorda jismoniy shaxslarga - bir yarim baravari miqdorida jarima solinadi.

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida barcha sohalardagi kabi soliq tizimda ham islohotlar davom ettirilmoqda. Jumladan 2014 yilgi soliq siyosati kontseptsiyasi doirasida jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni byudjetga undirishni jarayonini takomillashtirish maqsadida quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

Birinchidan, jismoniy shaxslarning daromad solig'i bo'yicha soliq stavkasining quyi shkalasi 0,5%ga kamaytirildi(2- rasm). Bu esa jismoniy shaxslar ixtiyorida qariyb 186 milliard so'm, shu jumladan, eng kam ish haqining 5 barobaridan kam daromad oladigan 2,7 million kishiga qo'shimcha ravishda 120 milliard so'm daromad qolishi uchun imkon beradi.

Jismoniy shaxslarning daromad solig`ining yuqori darajada bo`lishi aholi daromadlarini pasayishga, shu bilan birga turmush darajsiga ham ta'sir ko'rsatadi. Ularning qo'lida jamg'armalarning mavjud bo`lishi, o'z-o'zidan moliya bozorini rivojlantirishga, uning natijasida ishlab chiqarishni kengaytirishga, YaIM hajmini ortishiga va mamlkat iqtisodiyotini barqaror rivojlanishiga olib keladi. Shuningdek, soliq yukining og'irligi pulning qadrsizlanishini kuchayishiga bevosita emas, balki bilvosita yo'llar bilan ta'sir etadi.

Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishning hozirgi amaliyotida echimini kutayotgan bir qator muammolar mavjudki, ular qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin, jumladan:

- qimmatli qog'ozlardan olingen daromadlarni nazorat qilish mexanizmini;
- natura ko'rinishida olingen daromadlarni soliqqa tortish uslubiyatini;
- chet ellik norezident jismoniy shaxslarni Uzbekiston Respublikasi xududida olgan daromadlarini soliqqa tortish qoidalarini;

•respublikadan chetda olingan daromadlarni nazorat qilish va soliqqa tortish mexanizmini;

•yuridik shaxslar tomonidan jismoniy shaxslarga sovga kilinadigan yoki beriladigan turli ko'rnishdagi mulk ob'ektlarini (er, transport vositasi, turar joy, dala hovli, uy-ro'zgor maishiy texnikasi)

•Soliqqa tortishni hamda qonunda belgilangan soliq imtiyozlarining ko'llanilishini to'liq nazoratga olib bo'lmaydi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, jumladan, soliq sohasidagi islohotlar iqtisodiy o'zgarishlarning tarkibiy qismi sifatida jamiyatni demokratlashtirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashning umumiqtisodiy va maxsus vazifalarini hal etishga yordam berishi lozim. Bunda jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni byudjetga undirish jarayonini takomillashtirishda soliq siyosatining ustuvor yo'naliishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Soliqlarni undirishni soddallashtirish va ixchamlashtirish aholining turmush darajasini oshirishga hamda tadbirkorlik faoliyatidan daromad olishini rag'batlantirishga xizmat qilish bilan bir qatorda Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini ham takomillashtirishga xizmat qiladi. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, jumladan, soliq sohasidagi islohotlar iqtisodiy o'zgarishlarning tarkibiy qismi sifatida jamiyatni demokratlashtirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashning umumiqtisodiy va maxsus vazifalarini hal etishga yordam berishi lozim. Bunda jismoniy shaxslardan olinadigan soliqlarni byudjetga undirish jarayonini takomillashtirishda soliq siyosatining ustuvor yo'naliishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Soliqlarni undirishni soddallashtirish va ixchamlashtirish aholining turmush darajasini oshirishga hamda tadbirkorlik faoliyatidan daromad olishini rag'batlantirishga xizmat qilish bilan bir qatorda Davlat soliq xizmati organlari faoliyatini ham takomillashtirishga xizmat qiladi.

3.2. Jismoniy shaxslar soliq majburiyatlarini yanada mukammallashtirish yo'llari.

Respublikamizda soliq tizimini takomillashtirishning muhim yo'nalishlaridan biri jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini muvoqiflashtirish hisoblanib, bu yo'nalishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunda, birinchi navbatda aholining real daromadlarini oshirish va iqtisodiy rivojlantirishning muhim omili bo'lgan to'lovga layoqatliligin kuchaytirish asosiy o'rinda turibdi. Shuning bilan bиргаликда jismoniy shaxslar to'laydigan daromad solig'i byudjet daromadlarini shakllantirishda ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, qo'shilgan qiymat solig'i va aksiz solig'idan keyin - uchinchi, to'g'ri soliqlar tarkibida esa birinchi o'rinni egallaydi.

Jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortishni jahon amaliyotining guvohlik berishiga ko'ra deyarli barcha rivojlangan davlatlarda progressiv stavkada undiriladi. Masalan, jismoniy shaxslar daromadlari AQShda 15 foizdan 39,6 foizga qadar, Buyuk Britaniyada 20 foizdan 40 foizga qadar, Fransiyada 0 foizdan 56,8 foizga qadar, Germaniyada 19 foizdan 53 foizga qadar, Yaponiyada esa 10 foizdan 50 foizga qadar progressiv stavkada undiriladi³⁰.

Respublikamizda jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish amaliyoti joriy etilgandan e'tiboran differensial progressiv stavka qo'llanilib kelinmoqda. Bizning fikrimizcha, mamlakatimiz soliq tizimida jismoniy shaxslar daromadlarini ushbu tartibda soliqqa tortish o'zining bir qancha quyidagi afzalliklariga ega:

- soliqni hisoblash tartibi imkon qadar osonlashadi;
- jismoniy shaxslarni ko'proq daromad topishga bo'lgan moyilligi kuchayadi va real daromadlarini oshirishga bo'lgan intilishlari ortadi. Bu esa, jismoniy shaxslarni mehnat qilishga qiziqishiga, ishsizlar sonini kamayishiga hamda turmush darajasini ko'tarishga soliq vositasida rag'bat berish imkonini beradi;

³⁰ Завалишина И. Налоги: теория и практика. -Т.: "Мир экономики и права", 2005. -112 стр.

- yashirin tarzda daromad topayotgan jismoniy shaxslarga daromadlarini ochiq-oydin oshkor etish imkoniyatini beradi, ular soliq stavkasi pastligi hisobiga soliqdan cho‘chimaydilar;
- bu stavka hamma jismoniy shaxslar uchun bir xil bo‘lishini belgilaydi. Bozor iqtisodiyoti sharoitida barcha jismoniy shaxslar teng huquqli bo‘lgani uchun ham soliq solinishi ham teng bo‘lishi lozim;
- davlat soliq xizmati organlari tomonidan jismoniy shaxslar daromad solig‘i bo‘yicha soliqdan qochish va bo‘yin tovlash bo‘yicha qilinadigan ma’muriy xarajatlar tejaladi;
- eng asosiysi esa bunday tizim barcha jismoniy shaxslarga tushunarli bo‘lib, turli tushunmovchiliklar barham topadi, ular o‘z haq-huquqlarini himoya qila oladilar.

Lekin jismoniy shaxslar daromad solig‘i yagona stavkasi byudjetga bu soliq turi bo‘yicha tushumlar kamayishiga olib kelmasligi lozim. Bu bir qadar murakkab jarayon bo‘lib, soliqning optimal stavkasini aniqlash munozaraligicha qolmoqda. Ushbu masalani yechishda soliqlarga doir bo‘lgan jihatlarni e’tiborga olish bilan birlgilikda, boshqa sohalarda ham islohotlar olib borish lozim. Ularning asosiyлари sifatida mamlakatimizda investitsion muhitni yanada yaxshilashga e’tibor qaratish lozim. Ma’lumki, faqatgina investitsiya hajmining ortishigina yangi ish o‘rinlarini yaratadi. Bu esa bugungi kunda respublikamizdagi norasmiy ishsizlarni ish bilan ta’minlash imkonini beradi, o‘z navbatida ularning daromadlarini soliqqa tortish orqali yuqoridagi nomutanosiblikni bir qadar bartaraf etishga erishiladi.

Shuningdek, jismoniy shaxslarni ayrim faoliyat turlari bo‘yicha soliqqa tortish jarayoni erkinlashtirilishi lozim. Hozirgi paytda qaror topgan amaliyot mexanizmida jismoniy shaxslarning muayyan faoliyat turlari bilan shug‘ullanishi bir qadar hujjatbozlikni talab etadi. Bunday sharoitda ular daromadlari yagona pastroq stavkada soliqqa tortilsada, jismoniy shaxslarning daromadlarini ochiq-oydin oshkor etish imkoniyatlarini cheklaydi.

Umuman olganda bugungi kunda respublikamiz soliq tizimida jismoniy shaxslar daromad solig‘i muhim ahamiyatga ega ekanligidan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, ushbu soliq turi bo‘yicha islohotlar amalga oshirilishida ehtiyotkorona yondashishni talab etadi. Jismoniy shaxslar daromad solig‘i stavkalarini takomillashtirishda bosqichma-bosqich islohotlarni davom ettirgan holda, uning stavkalarini uch pog‘onali tizimdan ikki pog‘onali tizimga va shu tarzda yuqoridagi yo‘nalishlarni hisobga olgan holda yagona stavkani joriy etish o‘z samarasini beradi.

Fikrimizcha, jismoniy shaxslarning mehnatga haq to‘lash shaklidagi daromadlarini soliqqa tortish mexanizmi bir qator kamchiliklardan holi emas.

Shunga asosan aytish mumkinki, ushbu soliqqa tortish tizimi ishlab chiqarish korxonalari va tashkilotlarida o‘zi yo‘q odamni rasmiylashtirishga, ya’ni norasmiy ishlovchilar sonini oshirishga bo‘lgan g‘ayriqonuniy fikrlarni vujudga kelishiga sababchi bo‘lishi mumkin.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki, ushbu soliqqa tortish tartibini mavjud kamchiliklardan holi etish va takomillashtirish bugungi kunning asosiy vazifalaridan biridir. Fikrimizcha, mazkur soliqqa tortish tartibini takomillashtirish quyidagi uch yo‘nalishda bo‘lishi zarur.

Birinchi yo‘l - ortiqcha sarf qilingan mehnat orqali oshirilgan ish haqini rag‘batlantirish funksiyasini oshirish.

Ikkinci yo‘l - ish haqidan ushlanadigan daromad solig‘i foiz hisobida aniqlanib, uning miqdori faqat bir xil foizda bo‘lishi lozim.

Ko‘rinib turibdiki, bunday usulda soliqni chetlab o‘tishni iloji yo‘q, davlat byudjeti zarar ko‘rmaydi, aksincha yuqorida misol qilib olingan qo‘shtirnoq ichidagi ishbilarmonlar hisobidan davlat byudjeti ko‘payishiga shak-shubha yo‘q.

Bundan tashqari, bunday usulni qo‘llanilishi respublikamizdagi 350 minglik buxgalterlar ishini ancha yengillashtiradi. Chunki bir kishi ish haqidan ushlanadigan daromad solig‘ining hisob-kitob ishlarini, yana, uning ustiga, soliqni har oyda qo‘shilib borishi orqali aniqlanishini nazarda tutilsa, buxgalter

tomonidan bajariladigan ish hajmi va o‘zi bilib-bilmagan holda xato qilishini ko‘z oldimizga keltiraylik.

Shu bilan birga auditorlik yoki soliq inspeksiyasi tomonidan o‘tkaziladigan tekshiruvlarda vaqt yetmasligi uchun bu sohani sifatli tekshirilishiga hech qanday shubha yo‘q. Agar soliq yagona foizda ushlansa nafaqat bir oylik, hatto yillik oylik soliq hajmini tekshirish uchun bir necha daqiqagini sarf bo‘ladi xolos.

Uchinchi yo‘l - davlat byudjeti tomonidan moliyalashtirilgan muassasalar ishchi-xizmatchilarini nominal ish haqidan real ish haqiga o‘tkazish.

Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, hech bo‘lmasa, byudjet muassasalarida real ish haqi to‘lash usuliga o‘tish vaqtি keldi.

Mamlakatning iqtisodiy sohasi aholining iqtisodiy ongi va iqtisodiy madaniyati asosida takomillashib boradi. Bu esa o‘z navbatida, mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishiga hamda insonda soliq madaniyatining shakllanishida asos bo‘lib xizmat qiladi.

Darhaqiqat, insonda soliq madaniyatining shakllanishi murakkab jarayondir. U inson ongli faoliyatining asosini tashkil etadi. Insonning soliq to‘lovi faolligi turli xil soliq to‘lovlarida va ijtimoiy-iqtisodiy islohot va jarayonlarni qo‘llab-quvvatlashida namoyon bo‘ladi.

Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i tartibini takomillashtirish masalalaridan biri bo‘lgan soliqqa tortilmaydigan eng kam miqdorni aniqlash va soliq ortib borishining ijtimoiy-iqtisodiy asoslariga nisbatan yuqorida bildirilgan fikrlarning inobatga olinishi, aholidan olinadigan daromad solig‘i tartibini davr talabiga moslab takomillashtirishga o‘zining munosib hissasini qo‘shadi.

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, jumladan, soliq sohasidagi islohotlar iqtisodiy o‘zgarishlarning tarkibiy qismi sifatida jamiyatni demokratlashtirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalashning umumiqtisodiy va maxsus vazifalarini hal etishga yordam berishi lozim. Bunda jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortish va deklaratsiyalash tizimini takomillashtirish yo‘nalishlari aholining turmush darajasini oshirishga hamda

tadbirkorlik faoliyatidan daromad olishini rag'batlantirishga xizmat qilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Bitiruv malakaviy ishi doirasida olib borilgan taxlilar asosida respublikamizda aholining real daromadlari muttasil oshishi hisobiga jismoniy shaxslarning daromad solig'i bo'yicha davlat byudjetiga kelib tushadigan tushumlar qiyosiy narxlarda o'sib borish tendentsiyasiga ega bo'ladi, degan xulosaga kelindi.

Bitiruv malakaviy ishida jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortishni takomillashtirishga qaratilgan quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi

Birinchidan, Soliq kodeksining 179-moddasi 31 bandida keltirilgan imtiyoz, ya'ni fuqarolarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlarining O'zbekiston Respublikasi oliy o'quv yurtlarida ta'lim olish uchun yo'naltiriladigan summalari hozirgi kunda o'zining o'qishi yoki yigirma olti yoshga to'limgan farzandlarining o'qishi uchun qo'llanilmoqda. Hozirgi kunda bu imtiyoz fuqarolarga ancha engilliklar yaratishi bilan birgalikda, kichik muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Chunki aksariyat qiz bolalar 20-23 yosh atrofida turmush qurayaptilar. Buning oqibatida yosh oilaga to'lov shartnomasi asosida oliy o'quv yurtida o'qish moddiy tomondan qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Shuning uchun ota-onasining yo'naltirigan summalari bilan birgalikda erining ham soliq solinadigan daromadi va boshqa daromadlaridan yo'naltirilgan summalarini shu imtiyozga kiritish kerak deb o'ylaymiz.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-2099-sonli qarori bilan mol-mulkni ijara beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara haqining eng kam miqdorlari shuningdek, avtotransport vositalarini ijara berishda – har bir avtotransport uchun uning turiga qarab tabaqlashtirilgan holda, engil avtotransport uchun (haydovchi o'rmini hisobga olmagan holda 8 o'rindiqidan ko'p bo'limgan passajir, yuk tashishga

mo'ljallangan avtotransort vositasi) – oyiga 220 ming so'm, boshqa transport vositalari uchun (mikroavtobuslar, avtobuslar, yuk avtomobilari) – oyiga 430 ming so'm qilib belgilandi. Bu ko'rsatkichni ham Toshkent shahar, viloyatlar markazlari va tumanlar miqyosida tabaqalashtirish maxsadga muvofiq boladi deb o'ylayman chunki engil avtotransport va boshqa transport vositalariga ijara haqi Toshkent shahar tumanlarga nisbatan qarib 3 barobar qimmat va viloyat markazlari esa qarib 2 barobar qimmatligini amaldagi holatdan ko'rish mumkin.

Uchinchidan, qo'shimcha daromad manbai bo'lган mulkiy daromadlarni soliqqa tortish jarayonida, jumladan, fuqarolar tomonidan kvartilalarini ijaraga berish orqali qilinayotgan daromadlarni aniqlash va soliqqa tortish yuzasidan, fuqarolar yig'ini, uchastka noziri hamda soliq idoralari o'rtasida o'zaro hamkorlikni kuchaytirish. Buning uchun esa fuqarolar yig'ini tomonidan aniqlangan hamda tegishli tartibda soliq inspeksiyalariga ma'lumot etkazilish natijasida aniqlangan mulkiy daromadlarni soliqqa tortish yoki ushbu daromadlarini yashirgan fuqarolarga nisbatan qo'llanilgan moliyaviy yoki ma'muriy jarima summalarining ma'lum bir qismini o'sha hudud fuqarolar yig'inida qoldirishni joriy qilish kerak. Agarda shunday rag'batlanirish fuqarolar yig'iniga beriladigan bo'lsa, ular tomonidan fuqarolarning mulkiy daromadlarini aniqlash imkoniyati oshadi.

To'rtinchidan, Soliq kodeksining 181-moddasida ya'ni daromadlarning alohida turlariga solinadigan soliq stavkalarida mehnat sharoiti o'ta zararli va o'ta og'ir ishlarda band bo'lган ayollarning daromadlaridan olish darajasi 20 foizdan oshmasligi lozim deb qayd etilgan. Bu ko'rsatkich Soliq kodeksi kuchka kirgan yildan boshlab ya'ni 2008 yil 1 yanvardan boshlab amal qilib kelmoqda. 2008 yili jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-744 ssonli qaroriga asosan quyi stavkasi 13 foiz o'rta stavkasi 18 foiz va yuqori stavkasi 25 foiz qilib belgilangan bo'lsa joriy yilga kelib bu stavkalar ancha pasayganini ko'rishimiz mumkin va joriy yil jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2099 sonli qaroriga asosan quyi

stavkasi 7,5 foiz o’rtalik stavkasi 16 foiz va yuqori stavkasi 22 foiz qilib belgilangan. Ammo Mehnat sharoiti o’ta zararli va o’ta og’ir ishlarda band bo’lgan ayollarning daromadlaridan olish darajasi 20 foizdan oshmasligi lozim deb qayd etilgan joyiga o’zgartirish kiriylmagan va bu 20 foiz o’rniga 15 foiz qilib o’zgartirilsa maxsadga muvofiq bo’ladi deb o’ylaymiz.

3- bob bo`yicha xulosalar

Soliqqa tortish tizimini takomillashtirishning muhim yo`nalishlaridan biri soliq tizimini tartibga solish, soliq turlarini kamaytirish, hisob-kitob mexanizmini soddalashtirish va ular bo`yicha to`lov davriyigini kamaytirish hisoblanadi. Soliq soni qanchalik kam bo`lsa, ular shunchalik sodda bo`ladi va demak, tadbirkorlar va aholiga shuncha ko`p qulaylik yaratiladi.

Bitiruv malakaviy ishida jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortishni takomillashtirishga qaratilgan quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi

Birinchidan, Soliq kodeksining 179-moddasi 31 bandida keltirilgan imtiyoz, ya’ni fuqarolarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlarining O’zbekiston Respublikasi oliy o’quv yurtlarida ta’lim olish uchun yo’naltiriladigan summalari hozirgi kunda o’zining o’qishi yoki yigirma olti yoshga to’limgan farzandlarining o’qishi uchun qo’llanilmoqda. Hozirgi kunda bu imtiyoz fuqarolarga ancha engilliklar yaratishi bilan birgalikda, kichik muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Chunki aksariyat qiz bolalar 20-23 yosh atrofida turmush qurayaptilar. Buning oqibatida yosh oilaga to’lov shartnomasi asosida oliy o’quv yurtida o’qish moddiy tomondan qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Shuning uchun ota-onasining yo’naltirgan summalari bilan birgalikda erining ham soliq solinadigan daromadi va boshqa daromadlaridan yo’naltirilgan summalarini shu imtiyozga kiritish kerak deb o’ylaymiz.

Ikkinchidan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrdagi “O’zbekiston Respublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko’rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to’g’risida”gi PQ-2099-

sonli qarori bilan mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara haqining eng kam miqdorlari shuningdek, avtotransport vositalarini ijaraga berishda – har bir avtotransport uchun uning turiga qarab tabaqlashtirilgan holda, engil avtotransport uchun (haydovchi o’rnini hisobga olmagan holda 8 o’rindiqdan ko’p bo’lmagan passajir, yuk tashishga mo’ljallangan avtotransort vositasi) – oyiga 220 ming so’m, boshqa transport vositalari uchun (mikroavtobuslar, avtobuslar, yuk avtomobillar) – oyiga 430 ming so’m qilib belgilandi. Bu ko’rsatkichni ham Toshkent shahar, viloyatlar markazlari va tumanlar miqyosida tabaqlashtirish maxsadga muvofiq boladi deb o’ylayman chunki engil avtotransport va boshqa transport vositalariga ijara haqi Toshkent shahar tumanlarga nisbatan qarib 3 barobar qimmat va viloyat markazlari esa qarib 2 barobar qimmatligini amaldagi holatdan ko’rish mumkin.

Uchinchidan, qo’shimcha daromad manbai bo’lgan mulkiy daromadlarni soliqqa tortish jarayonida, jumladan, fuqarolar tomonidan kvartiralarini ijaraga berish orqali qilinayotgan daromadlarni aniqlash va soliqqa tortish yuzasidan, fuqarolar yig’ini, uchastka noziri hamda soliq idoralari o’rtasida o’zaro hamkorlikni kuchaytirish. Buning uchun esa fuqarolar yig’ini tomonidan aniqlangan hamda tegishli tartibda soliq inspeksiyalariga ma’lumot etkazilish natijasida aniqlangan mulkiy daromadlarni soliqqa tortish yoki ushbu daromadlarini yashirgan fuqarolarga nisbatan qo’llanilgan moliyaviy yoki ma’muriy jarima summalarining ma’lum bir qismini o’sha hudud fuqarolar yig’inida qoldirishni joriy qilish kerak. Agarda shunday rag’batlantirish fuqarolar yig’iniga beriladigan bo’lsa, ular tomonidan fuqarolarning mulkiy daromadlarini aniqlash imkoniyati oshadi.

To’rtinchidan, Soliq kodeksining 181-moddasida ya’ni daromadlarning alohida turlariga solinadigan soliq stavkalarida mehnat sharoiti o’ta zararli va o’ta og’ir ishlarda band bo’lgan ayollarning daromadlaridan olish darajasi 20 foizdan oshmasligi lozim deb qayd etilgan. Bu ko’rsatkich Soliq kodeksi kuchka kirgan yildan boshlab ya’ni 2008 yil 1 yanvardan boshlab amal qilib kelmoqda. 2008 yili jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig’i stavkalari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-744 ssonli qaroriga asosan quyi stavkasi 13 foiz o'rta stavkasi 18 foiz va yuqori stavkasi 25 foiz qilib belgilangan bo'lsa joriy yilga kelib bu stavkalar ancha pasayganini ko'rishimiz mumkin va joriy yil jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2099 sonli qaroriga asosan quyi stavkasi 7,5 foiz o'rta stavkasi 16 foiz va yuqori stavkasi 22 foiz qilib belgilangan. Ammo Mehnat sharoiti o'ta zararli va o'ta og'ir ishlarda band bo'lган ayollarning daromadlaridan olish darajasi 20 foizdan oshmasligi lozim deb qayd etilgan joyiga o'zgartirish kiriylmagan va bu 20 foiz o'mniga 15 foiz qilib o'zgartirilsa maxsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylaymiz.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bitiruv malakaviy ishining yakunida quyidagi xulosalar shakllandi:

Birinchidan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining davlat byudjeti daromadlari tarkibida 11-12 foiz atrofida bo'lishi ushbu soliqning byudjet uchun ahamiyatli ekanligidan dalolat beradi.

Ikkinchidan, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ining stavkasi bir necha yillardan buyon pasaytirib kelinmoqda, ammo oxirgi uch yil ichida o'rta shkalasi va besh yil ichida yuqori shakalasi bo'yicha soliq stavkasi o'zgarmagan. Yana shuni aytish joizki, soliq tavkalarini pasayishiga qaramasdan ish haqidan majburiy sug'urta badali stavkasining ortishi aholi daromadlariga ta'sir ko'rsatadi. Soliq islohotlari davrida aholi daromadlarini oshirish maqsadida majburiy to'lovlni ham inobatga olish zarur.

Uchinchidan, jismoniy shaxslar o`zlarining ijara shaklida olgan daromadlarini ko`rsatmaydilar, chunki bu daromad qonun bo'yicha progressiv stavkada soliqqa tortiladi. Jismoniy shaxslarning ijara shaklida olgan daromadlariga xam dividend daromadlari kabi proporsional stavkada soliqqa tortish ushbu aromad bo'yicha soliq summasini ortishiga olib kelishi mumkin. Shuningdek, ijra daromadlari bo'yicha soliq ni oyma-oy joriy etilish byudjet mablag'larini barqarorlashtirish imkonini berishi mumkin.

To'rtinchidan, biz bilamizki, jismoniy shaxslar o'z jamg'armalarini banklarda saqlaganliklari uchun va undan daromad olganliklari uchun soliq to'lamaydilar, ammo shunga qaramasdan ularda bank tizimiga bo'lagn ishonch ortayotganligi yo'q. Iqtisodiyotni rivojlantirish va bank tizimini moliya bozoridagi faolitini rivojltirish maqsadida banklarga ish haqidan to'g'ridan-to'g'ri omonotga qo'yiliganida soliq imtiyozlarini joriy etish mumkin, ya'ni barcha summadan 9% miqdorida.

Beshinchidan, mol-mulk solig'i ob'yektining haqiqiy qiymati bilan rasmiy hujjatlardagi narxi o'rtasida shubha tug'ilgan taqdirda, soliq to'lovchi jismoniy shaxslarning mol-mulkiga bozor narxini qo'llagan holda mol-mulk solig'ini hisoblashga uchastka soliq inspektorlariga ruxsat etilsa mahalliy byudjetni

mablag'lar ta'minlashdagi muammolar o'z yechimini topgan bo'lar edi. Mol-mulk solig'i ob'ektiga bozor narxini qo'llayotganda mol-mulk solig'i ob'ekti qayerda joylashganligini ya'ni markazga yaqin yoki bozorlarga yaqin joylashganligini hisobga olsa, tabaqalashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida olib borilayotgan soliq islohotlari va soliq to'lovchilar va davlat byudjeti manfaatlarini o'zida aks ettirishi lozim bo'ladi. Biz jismoniy shaxslar daromadlarini soliqqa tortish tizimini o'rganish va ularni soliqqa tortish jarayonlarini takomillashtirish bo'yicha quyidagi tavsiyalarni berishni lozim deb topdik:

1. Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblash jarayonida jismoniy shaxslar uchun soliqqa tortilmaydigan minimumni joriy etish lozim. Jismoniy shaxslarga nisbatan soliqqa tortilmaydigan minimumni joriy etilishi natijasida bir tomondan aholini ijtimoiy muhofazaga muhtoj qatlamini yanada himoyalanishi ta'minlansa, ikkinchi tomondan barcha rivojlangan davlatlar tendensiyalarini soliq tizimiga joriy etilishi ta'minlanadi.

2. Soliq qonunchiligiga muvofiq, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'ini hisoblashning amaldagi usuli jismoniy shaxslar daromadlarini deklaratsiyalash va daromad solig'ini hisoblab chiqarishda chalkashliklarni keltirib chiqarmoqda. Bu, o'z navbatida, mazkur soliqning byudjetga o'z vaqtida to'liq undirilmasligi va moliyaviy jarimalar qo'llanilishiga olib kelmoqda.

3. Tahlillar ko'rsatishicha, respublikamizda daromadlarini deklaratsiyalovchi jismoniy shaxslarga nisbatan qo'llaniladigan moliyaviy va ma'muriy jarimalar soni oshib bormoqda. Jismoniy shaxslar jami daromadlarini deklaratsiyalash tizimi bo'yicha qonunchilik talablarini buzishning keng tarqalgan shakli asosan deklaratsiyani kechikib taqdim etishidir. Mazkur natijalar, soliq organlarining jismoniy shaxslar jami daromadlarini deklaratsiyalash tizimidagi to'lov intizomini mustahkamlash va daromadlarni deklaratsiyalash bo'yicha tushuntirish ishlari, targ'ibot-tashviqot tadbirlarini kuchaytirish lozimligini ko'rsatadi.

4. Soliq kodeksiga muvofiq jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan soliq imtiyozlariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslarning bir guruhiba tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanganda ularga nisbatan imtiyozlar qo‘llanilmayapti. Bizning fikrimizcha, jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘idan imtiyozga ega fuqarolarga tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullangan taqdirda qat’iy belgilangan soliq bo‘yicha ham soliq imtiyozini qo‘llanilishi maqsadga muvofiq.

5. Jahon amaliyotida jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortishda progressiv soliq stavkalari bilan bирgalikda yagona, oddiy foizli stavkada soliqqa tortish amaliyoti ham qo‘llanilib kelinmoqda va bu amaliyot soddaligi bilan o‘z samarasini bermoqda. Bizningcha, milliy soliq tizimida soliqqa tortish amaliyotida jismoniy shaxslarning ish haqi shaklidagi daromadlarini soliqqa tortishda 3 shkalali stavkalardan 2 shkalali stavklarga o‘tish va asta-sekin yagona stavka joriy etish lozim.

Bizning mazkur bitiruv malakaviy ishi darajasida bergen takliflarimiz amaliyotga joriy etilsa, iqtisodiyotni erkinlashtirish va mamlakatni modernizatsiyalash sharoitida jismoniy shaxslarni soliqqa tortish tizimi va soliq siyosati samaradorligini oshirishga, soliq munosabatlarida mavjud muammolarni bartaraf etishga va soliq tizimini takomillashtirishga o‘zining munosib hissasini qo‘shadi.

Bitiruv malakaviy ishida jismoniy shaxslarning daromadlarini soliqqa tortishni takomillashtirishga qaratilgan quyidagi ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi

Birinchidan, Soliq kodeksining 179-moddasi 31 bandida keltirilgan imtiyoz, ya’ni fuqarolarning soliq solinadigan ish haqi va boshqa daromadlarining O’zbekiston Respublikasi oliv o’quv yurtlarida ta’lim olish uchun yo’naltiriladigan summalari hozirgi kunda o‘zining o’qishi yoki yigirma olti yoshga to’limgan farzandlarining o’qishi uchun qo‘llanilmoqda. Hozirgi kunda bu imtiyoz fuqarolarga ancha engilliklar yaratishi bilan bирgalikda, kichik muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Chunki aksariyat qiz bolalar 20-23

yosh atrofida turmush qurayaptilar. Buning oqibatida yosh oilaga to'lov shartnomasi asosida oliy o'quv yurtida o'qish moddiy tomondan qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda. Shuning uchun ota-onasining yo'naltirgan summalarini bilan birgalikda erining ham soliq solinadigan daromadi va boshqa daromadlaridan yo'naltirilgan summalarini shu imtiyozga kiritish kerak deb o'laymiz.

Ikkinchidan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 25 dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasining 2014 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-2099-sonli qarori bilan mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara haqining eng kam miqdorlari shuningdek, avtotransport vositalarini ijaraga berishda – har bir avtotransport uchun uning turiga qarab tabaqlashtirilgan holda, engil avtotransport uchun (haydovchi o'rmini hisobga olmagan holda 8 o'rindiqdan ko'p bo'limgan passajir, yuk tashishga mo'ljallangan avtotransport vositasi) – oyiga 220 ming so'm, boshqa transport vositalari uchun (mikroavtobuslar, avtobuslar, yuk avtomobillar) – oyiga 430 ming so'm qilib belgilandi. Bu ko'rsatkichni ham Toshkent shahar, viloyatlar markazlari va tumanlar miqyosida tabaqlashtirish maxsadga muvofiq boladi deb o'layman chunki engil avtotransport va boshqa transport vositalariga ijara haqi Toshkent shahar tumanlarga nisbatan qarib 3 barobar qimmat va viloyat markazlari esa qarib 2 barobar qimmatligini amaldagi holatdan ko'rish mumkin.

Uchinchidan, qo'shimcha daromad manbai bo'lgan mulkiy daromadlarni soliqqa tortish jarayonida, jumladan, fuqarolar tomonidan kvartiralarini ijaraga berish orqali qilinayotgan daromadlarni aniqlash va soliqqa tortish yuzasidan, fuqarolar yig'ini, uchastka noziri hamda soliq idoralari o'rtasida o'zaro hamkorlikni kuchaytirish. Buning uchun esa fuqarolar yig'ini tomonidan aniqlangan hamda tegishli tartibda soliq inspeksiyalariga ma'lumot etkazilish natijasida aniqlangan mulkiy daromadlarni soliqqa tortish yoki ushbu daromadlarini yashirgan fuqarolarga nisbatan qo'llanilgan moliyaviy yoki ma'muriy jarima summalarining ma'lum bir qismini o'sha hudud fuqarolar yig'inida qoldirishni joriy qilish kerak. Agarda shunday rag'batlantirish fuqarolar

yig'iniga beriladigan bo'lsa, ular tomonidan fuqarolarning mulkiy daromadlarini aniqlash imkoniyati oshadi.

To'rtinchidan, Soliq kodeksining 181-moddasida ya'ni daromadlarning alohida turlariga solinadigan soliq stavkalarida mehnat sharoiti o'ta zararli va o'ta og'ir ishlarda band bo'lgan ayollarning daromadlaridan olish darajasi 20 foizdan oshmasligi lozim deb qayd etilgan. Bu ko'rsatkich Soliq kodeksi kuchka kirgan yildan boshlab ya'ni 2008 yil 1 yanvardan boshlab amal qilib kelmoqda. 2008 yili jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-744 ssonli qaroriga asosan quyi stavkasi 13 foiz o'rta stavkasi 18 foiz va yuqori stavkasi 25 foiz qilib belgilangan bo'lsa joriy yilga kelib bu stavkalar ancha pasayganini ko'rishimiz mumkin va joriy yil jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i stavkalari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2099 sonli qaroriga asosan quyi stavkasi 7,5 foiz o'rta stavkasi 16 foiz va yuqori stavkasi 22 foiz qilib belgilangan. Ammo Mehnat sharoiti o'ta zararli va o'ta og'ir ishlarda band bo'lgan ayollarning daromadlaridan olish darajasi 20 foizdan oshmasligi lozim deb qayd etilgan joyiga o'zgartirish kiriylmagan va bu 20 foiz o'mniga 15 foiz qilib o'zgartirilsa maxsadga muvofiq bo'ladi deb o'ylaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari

- 1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2008 y. 40 b.
- 1.2. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2011 yil.
- 1.3. «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. // «Xalq so'zi» gazetasi, 1997 yil 29 avgust.
- 1.4. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi. O'zR Oliy Majlisining 29.08.96 y. 257-I-son Qaroriga muvofiq 1 mart 1997 y. e'tiboran amalga kiritilgan. 234-modda.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari

2.1. Mikrofirmalar va kichik korxonalarini rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.06.2005 y. PF-3620-son Farmoni.

2.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18 noyabrdagi «Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 4053-son Farmoni.

2.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida”gi PP-1449-sonli Qarori (2010 yil 24 dekabr).

2.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida”gi PP-1675-sonli Qarori (2011 yil 30 dekabr).

2.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida”gi PQ-1887-sonli Qarori (2012 yil 25 dekabr).

2.6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “2014 yilga asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari va Davlat byudjeti parametrlari prognozi to'g'risida”gi PQ-2099-sonli qarori (2013 yil 25 dekabr).

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlar

3.1. “Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 2004 yil 21 dekabr.

3.2. “Bevosita xususiy xorijiy investitsiyalar uchun soliq imtiyozlarini qo'llash tartibi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 3 avgustdagি Qarori. //“Soliqlar va bojxona xabarlari” gazetasi, 2005 yil

5 dekabr, № 49.

4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma’ruzalari

4.1. Karimov I.A. 2014 yil yuqori o’sish sur’atlari bilan rivojlanish, barcha mavjud imkoniyatlarni safarbar etish, o’zini oqlagan islohotlar strategiyasini izchil davom ettirish yili bo’ladi» - “Xalq so’zi” gazetasi. 2014 yil 18 yanvar, № 13 (5687).

4.2. Islom Karimov. Bosh maqsadimiz- keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish. - Toshkent: Xalq so’zi gazetasi, 2013 yil, 19 yanvar, №13 (5687).

4.3. Islom Karimov. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi. –T.: O‘zbekiston, 2012. – 36 b.

4.4. Karimov I.A. «Biz kelajagimizni o‘z qo’limiz bilan quramiz». - T.: O‘zbekiston, 1999 y. 46-bet.

4.5. Karimov I.A. O’zbekiston buyuk kelajak sari.-Toshkent. O’zbekiston.-1998 yil.

4.6. Karimov I.A. Bunyodkorlik - farovon xayot asosi: Uz.R Oliy majlisning IV sessiyasida so’zlangan nutqi. 1995 yil 21 dekabr.-T.: «O‘zbekiston», 1995, 14-bet.

5. Darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va maqolalar to‘plami

5.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi” mavzusidagi ma’ruzasini o‘rganish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. –T.: Iqtisodiyot, 2012. –233 b.

5.2. Vahobov A., Jo‘rayev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. –T.: Sharq, 2009. 448 bet.

5.3. Alimardonov M.I., To‘xsanov Q.N. Soliq nazariyasi. –T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2005. - 175 b.

5.4. Dadalko V.A. Nalogoooblojenie v sisteme mejdunarodnix ekonomiceskix otnosheniy: Ucheb. Posobie. /V.A.Dadalko, E.E.Rumyantseva, N.N.Demchuk. – Mn.: Armita-Marketing, Menedjment, 2000.

5.5. Tuhsanov Q.N. Soliqlar va soliqqa tortish. Ma’ruzalar matni. Toshkent: TDIU, 2012 y.- 197 b.

5.6. Tuxsanov Q. Soliq tarixi va nazariyasi. Elektron o‘quv-uslubiy majmua. T.: TDIU, 2012 y.

5.7. Kochergov D.S., Ustinova E.E. Uproshchennaya sistema nalogoooblojeniya. -M.: Omega, 2006. - 317 s.

5.8. Nalogi: Uchebnoe posobie/Pod redaktsiey D.G.Chernika. 2-e izd., – M.: Finansi i statistika, 1996., s.567.

5.9. Zavalishina I.A. Soliqlar: nazariya va amaliyot: O’quv qo‘llanma. –T.: Iqtisodiyot va huquq dunyosi nashriyot uyi, 2005. –544 b.

5.10. Yahyoev Q.A. Soliqqa tortish nazariyasi va amaliyoti: Darslik. –T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2003. – 247 b. Temur tuzuklari. T.: «Cho'pon», 1991 i. 98-bet.

6. Jurnal va gazetalardagi maqolalarga havolalar

6.1. Mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda soliq tizimining rolini oshirish masalalari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. -T.: TDIU, 2011 yil 14 fevral.

7. Hisobotlar va statistik materiallar

7.1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari.

7.2. Toshkent viloyati Yangiyo‘l tuman DSI ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

8. Internet sahifalariga havolalar

8.1. <http://www.soliq.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining rasmiy sayti

8.2. <http://www.nalog.ru> – Rossiya Federatsiyasi soliq qo‘mitasining rasmiy sayti

8.3. <http://www.norma.uz> - NORMA- elektron axborot huquqiy tizimi.